

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI

Berdiyeva Zebo Muxamadovnaning

**5610200 - «Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish» ta‘lim
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB
QILISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI**

Ilmiy rahbar:

PhD. Fayzullayev N.

Urganch 2019 yil

O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

MUNDARIJA:

KIRISH

I-BOB. TURIZM SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

- 1.1. Turizm sohasida investitsiya tushunchasi va uning mazmuni
- 1.2. Xorijiy investitsiyalar turlari va uning turizm sohasida tutgan o'rni
- 1.3. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning ma'muriy-huquqiy asoslari

II-BOB. O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING XUSUSIYATLARI VA INVESTITSION MABLAG'LARDAN SAMARALI FOYDALANISH

- 2.1. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning tahlili
- 2.2. Turizm sohasining investitsion salohiyatini oshirish samaradorligi
- 2.3. Turizmni investitsiyalash va bank kreditlaridan foydalanish

XULOSA VA TAKLIFLAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, investitsiya iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi – drayveridir. Keyingi yillarda butun dunyoda xorijiy investitsiyalar jalb etish tobora murakkab kechmoqda. Masalan, 2018 yilda jahonda investitsiya oqimi 19 foizga kamaygan. Turizmga qo'yiladigan har qanday investitsiya – bu kelajakka qo'yiladigan investitsiyadir.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev quyidagicha ta'kidlaydilar: “Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya — bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi”.¹

Bugungi kunda chet el investitsiyalarining aksariyat qismi nazariy va uslubiy bazani rivojlantirishda yetarlicha yaratilmagan. Respublikada sayyohlik korxonalari masalalari bo'yicha qabul qilingan hujjatning turizm va investitsiya qonunlari va nizomlari xususiyatlari to'liq e'tiborga olinmaydi. Turizm qonunchiligiga sarmoya jalb qilish va boshqa nazariy jihatlar bilan bog'liq rasmiylashtirishlar ishlab chiqilishi kerak Turizmga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha talab va takliflar sektori bo'lishi quyidagilarni o'zida ifodalaydi:

- Turizm sohasini rivojlantirish va ushbu sohaga investitsiyalarni keng jalb qilish;
- Xorijiy tajribalarni jalb qilish;
- Turizm xizmatlarining yangi turlari va turkumlarini yaratish;
- Keng miqyosli investitsiyalarni jalb qilish uchun kriteriyalarni rivojlantirish;
- Chet el investitsiyalarini keng jalb qilishda turizmning qo'shimcha imtiyozlarini qo'llash;
- Investitsiya muhitini yaratish va yanada takomillashtirish;

¹ Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi matbuot xizmati turkumidan. 2019-yil 10-aprel.

- Me'yoriy jihatdan jalb etish uchun keng miqyosli investitsiyalarning huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- Sayyohlik xizmatlarining sonini va sifatini oshirish;
- Turizm sohasidagi samaradorlik kursori tizimini ishlab chiqarish;
- Investitsiyalarni nazorat qilish va monitoringini takomillashtirish;

O'zbekiston ham ko'plab madaniy yodgorliklarga boy bo'lgan tarixiy shaharlar mavjudligi bilan turizm sohasiga chet el investitsiyalarni jalb qilishda yetakchi mamlakatlar qatoridan o'rin olgan davlat hisoblanadi. Tanlangan mavzuning dolzarbligi ham ana shu vazifalarni o'rganishni taqozo etadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy mamlakatlarda Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilishning istiqbolli yo'nalishlar xususida V.Ye.Yesipova, Ya.M.Mirkin, V.Y.Cherkasov, A.Zel, V.V.Kovalev, Shim Djey, Dj.Sigel, M.E.Porter, Ch.P.Kindlberger, D.Manayenkov, K.Yudayeva, U.Sharp, V.Mau, N.Vilkova, O.Kuznetsova, kabi olimlar shug'ullanishgan.

Xorijiy mamlakatlarda turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilishning istiqbolli yo'nalishlarini o'rganish borasida O.Yu.Rashidov, X.A.Qurbonov, R.X.Karlibayeva, A.V.Vahobov, Sh.X.Xajibakiev, N.G.Mo'minov, H.H.Imomov, R.Abdullayev, G.M.Kadirova, A. Bekmurodov, A.S.Jo'rayev, X.E.Amonov, N.N.Rasulov, N.Qo'ziyeva kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Bitiruv malakaviy ishi ob'ekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishi ob'ekti qilib, turizm sohasining barcha korxonalari, predmeti qilib esa, O'zbekistonda turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilishning istiqbolli yo'nalishlari bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar olindi.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi O'zbekistonda turizm investitsiyalarni jalb qilishning istiqbolli yo'nalishlarini o'rganish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, **bitiruv malakaviy ishining vazifalari** quyidagilardan iborat:

- turizm sohasida investitsiya tushunchasi va uning mazmunini ochib berish;
- xorijiy investitsiyalar turlari va uning turizm sohasida tutgan o'rni haqida ma'lumot berish;

- o'zbekiston respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning ma'muriy – huquqiy asoslari;

- o'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning tahlilini o'rganish;

- turizm sohasining investitsion salohiyatini oshirish samaradorligini ko'rsatib berish;

- turizmni investitsiyalash va bank kreditlaridan foydalanish bo'yicha izlanishlar olib borish;

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishining ahamiyati shundaki, unda keltirilgan materiallardan turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilishning yo'nalishlari bilan bog'liq masalalarni hal etishda va ularning faoliyatini yanada, rivojlantirishda, shuningdek, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, “Xorijiy investitsiyalar”, “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” va “Investitsiyalar auditi va baholash” kabi fanlarni o'qitishda keng foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-uslubiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari va asarlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, iqtisodiy adabiyotlar, internet saytlari va statistik ma'lumotlar, shuningdek investitsiya faoliyatini rivojlantirish bosqichlari sohasiga bag'ishlangan manbalar xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibi. Ushbu ish kirish, 6 ta paragrafdan iborat 2 ta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. TURIZM SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Turizm sohasida investitsiya tushunchasi va uning mazmuni

Ma'lumki, turizm butun u bilan bog'liq barcha infratuzilmani rivojlantirishga (joylashtirish, transport, ovqatlantirish, ko'ngil ochish va boshqa qo'shimcha xizmatlar) to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi va natijada uni iqtisodiyotning yuqori daromadli sohasiga aylantiradi. Shu munosabat bilan, turizmni rivojlantirish sohasidagi xalqaro hamkorlikni kengaytirish, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish va mamlakatning sayyohlik salohiyatini ommalashtirishga asosiy turtki bo'ladi. Bunguni kunda mamlakatimiz hududida ko'plab tashkilotlar bu xususda o'z faoliyatlarini yuritib kelishmoqdalar. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat turizmni rivojlantirish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasining chet eldagi elchixonasi, Tashqi savdo va savdo vazirligi O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi kabi ko'plab davlat tashkilotlarini misol tariqasida aytsak bo'ladi. 2018-yil 19-21 noyabr kunlari birinchi marta Toshkent shahrida ushbu tashkilotlar tomonidan tashkillashtirilgan turizm sohasidagi xalqaro investitsion forum o'tkazildi. Forumda Yevropa va Osiyo mamlakatlari sarmoyadorlari, xalqaro moliya institutlari va turizm sohasidagi tashkilotlar vakillari, sayyohlik sohasi mutaxassislari, mamlakatimiz va chet el kompaniyalarining rahbarlari ishtirok etdilar. Bugungi kunda turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish potensialiga ega loyihalarni amalga joriy etish, Surxondaryo viloyatida "Chorvoq", "Samarqand shahri", "Qadimiy Buxoro", "Xiva shahri" sayyohlik hududlari, Surxondaryo va O'zbekistonning boshqa viloyatlarida kichik sayyohlik hududlari yaratish eng ustuvor istiqbolli yo'nalishlardan biriga aylangan. Bunday natijalarga erishish uchun investorlar va turizm sektori vakillari o'rtasida ko'plab hamkorliklar, bitimlar va memorandumlar imzolanishi ham mamlakatimizda investitsion muhitning toboro ortib borishiga o'z xissasini qo'shadi.²

² <https://www.nordeatrade.com/explore-new-market/Uzbekistan/investment-environment>.

Turizm sohasidagi investitsiya tushunchasiga yagona va to'liq tarif berish anchagina qiyin hisoblanadi. Iqtisodiy fanlarda va amaliy faoliyatning turli jabhalarida bunday turdagi investitsiyalarning mazmuni hamda ularning o'ziga xususiyatlari mavjudligi investitsiya atamasi va investitsiya to'g'risidagi dastlabki umumiy qononlar bilan uzviy bog'liqdir. Dastlab O'zbekiston Respublikasida investitsiya xususida qonuniy hujjatlar 1991 yildan boshlab qabul qilingan bo'lib, ular o'tgan vaqt ichida ancha takomillashtirildi. Investitsiya to'g'risida O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunda ko'rsatilishicha, investitsiya bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aktsiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir. Bu iqtisodiy ta'rif investitsiyaning bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos kelishini to'laligicha tasdiqlaydi. Jumladan, unda, birinchidan, investitsiyaning o'ziga va investitsiya faoliyatining ob'ektlariga keng ta'rif berilgan. Ikkinchidan, investitsiyaning bevosita iqtisodiy va ijtimoiy samara olishga muqarrar bog'liqligi ta'kidlab o'tilgan. Demak, investitsiyaga bozor munosabatlaridan kelib chiqib berilgan ta'rifning o'zidayoq investitsiya jarayonining hajmi, asosiy bosqichlari, ya'ni jamg'armalar (resurslar), qo'yilma mablag'lar (sarf-xarajatlar), samara (daromad, foyda) aniq va ravshan ko'rsatib o'tilgan. Xuddi shu kabi yondashuv investitsiya faoliyatining bozor munosabatlariga o'tishi uchun zamin yaratadi, bu esa, moliyaviy moddiy va aqliy boyliklarni qayta taqsimlashning vertikal va gorizontal usullaridan bir xilda foydalanishni ta'minlab beradi.

“Investitsiya” atamasi lotin tilidagi “invest” so'zidan kelib chiqqan bo'lib “qo'yish”, “mablag'ni safarbar etish”, “kapital qo'yilmasi” ma'nosini beradi.³ Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi.

Ko'pgina hollarda “Investitsiya” tushunchasi iqtisodi va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir

³ Валдайцев С.В., Воробьев П.П. Инвестиции. Уч. М.: ТК Вентби, издательство Проспект. 2004. – стр.55.

huquqlar tarzida ta'riflanadi. Investitsiya deyilganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Investitsiya tushunchasiga yangi kapitalni barpo etish uchun sarflangan xarajat sifatida ham ta'rif berish o'rinli. Investitsiyalar – bu yangi korxonalar qurilishiga, mashina va asbob-uskunalar sotib olishga, ya'ni yangi kapitalni barpo etishga ketgan harajatlardir.

Investitsiya tushunchasini to'la yoritish uchun unga berilgan ta'riflarni keltirish joiz. Investitsiyalar – bu hali buyum- lashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapitaldir. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy xususiyatiga ko'ra, u yangi korxonalar qurishga, uzoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob uskunalariga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan harajatlardir.

Xorijiy investitsiyalar - bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.

Turizm sohasida investitsiyalar – aynan aniq bir belgilangan davrda iste'mol qilingan va kelajakda aniq iste'mol qilinadigan iqtisodiyotdagi kapital qo'yilmalarining ko'payishini ta'minlashga ko'maklashuvchi yalpi ichki mahsulotning bir qismi hisoblanadi.

“Chet el investitsiyalari” to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan Qonunining 3-moddasida “Chet ellik investorlar asosan daromad (foйда) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir xuquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir xuquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan

olingan har qanday daromad O‘zbekiston respublikasi hududida chet el investitsiyalari deb e‘tirof etiladi”⁴

Bu sohadagi vazifalarga investitsiyalarning hajmi, tarkibi va dinamikasini xarakterlash, investitsiya jarayonini amalga oshirishga yo‘naltirilgan mablag‘larni manbai va o‘lchamini o‘rganish investitsiya faoliyatini amalga oshirish shakllari va uslublarini tahlil qilish, investitsiya larning samaradorligini aniqlash va ko‘rsatkichlar orqali investitsiya xavf-xatarini baholash kabilar kiradi.

Sohaning ob‘ekti sifatida investitsiyalar uning alohida turlari hosil bo‘lish manbalari, foydalanish yo‘nalishlari, qoplash shakllari va muddatlari bo‘yicha bir butun holda o‘rganiladi. Bunda ichki va tashqi, vatanimizning va chet el investitsiyalari, asosiy kapitalga investitsiyalar va aylanma mablag‘larga investitsiyalar, bir butun kapital qurilish investitsiyalar, uy-joy va ijtimoiy-madaniy qurilishga investitsiyalar, mulk shakllari bo‘yicha investitsiyalar, hududiy sub‘ektlari, vazirlik va boshqalar iqtisodiyotning tarmoqlari bo‘yicha investitsiyalarni, ularning o‘sish dinamikasi alohida o‘rganiladi.

Maqsadiga ko‘ra xorijiy investitsiyalar bevosita va portfel investitsiyalarga bo‘linadi. Bevosita investitsiyalar – bu kapitalni to‘g‘ridan-to‘g‘ri eksporti bo‘lib, investitsiya kirituvchiga shu korxonadan nazorat qilish huquqini beradi. Bunda korxonadan asosiy kompaniyaning xorijdagi shahobchasiga aylanadi. Bevosita xorijiy investitsiyalar asosan xususiy tadbirkorlik kapitali shaklida bo‘ladi.

Bevosita investitsiyalar asosan ikki guruhga ajratiladi.

1. Transkontinental kapital qo‘yilmalar.
2. Transmilliy qo‘yilmalar.

Transkontinental kapital qo‘yilmalar - investitsiya kiritish uchun qulay bozor sharoiti bo‘lgan boshqa bir davlat yoki qit‘aga investitsiya eksportini amalga oshirishdir. Asosiy maqsad – bozorni egallash va shu kontinentda yangi ishlab chiqarishni tashkil etish. Bevosita va portfel investitsiyalar o‘rtasidagi farqlar asosan 3 turga bo‘linadi va quyidagi tasniflarga farqlanadi (1.1.1-jadval):

⁴ Ўзбекистоннинг янги қонунлари. 19-сон,-Т.: Адолат,1998.532-бет.

1.1.1-jadval.

Bevosita va portfel investitsiyalar o'rtasidagi farqlar.⁵

Belgilar	Bevosita Investitsiyalar	Portfel Investitsiyalar
Kapital chiqarishdan asosiy maqsad ¹	Xorijiy firma ustidan nazorat o'rnatish	Yuqori foyda olish
Maqsadga erishish yo'llari	Xorijda ishlab chiqarishni tashkil etish va olib boorish	Xorijiy qimmatbaho qog'ozlarini sotib olish
Maqsadga erishish Usullar	a) xorijiy firmaga to'liq egalik qilish; b) aksiyalar nazorat paketini sotib olish kompaniya aksioner kapitalining 25%dan kam bo'lmasligi kerak	Xorijiy firma aksioner kapitalining 25%dan (AQSh, Yaponiya, Germaniyada 10%dan) kamini sotib olishi
Daromad shakllari	Tadbirkorlik faoliyati foydasi, dividendlar	Dividendlar, foizlar

Transmilliy kapital qo'yilmalari esa asosan qo'shni davlatlarga amalga oshiriladi.

Bevosita investitsiyalar ikki maqsadda yo'naltiriladi:

- yangi kompaniya tashkil etish;
- bankrot bo'lgan kompaniyalarni xarid qilish.

Portfel investitsiyalar - shunday investitsiyalarki, bunda kapitalni daromad olish maqsadida korxonalarining aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun sarflanadi. Bunday investitsiyalar korxonalarining moliyaviy xo'jalik faoliyati ustidan nazorat o'rnatish huquqini bermaydi. Xorijiy

⁵ Manba: Muallif izlanishlari asosida tuzilgan.

portfel investitsiyalar barcha xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda firmalar uchun muhim ahamiyatga ega. Bu turdagi investitsiyalarga asosan moliyaviy muammolarni echish uchun murojaat qilinadi. Korporatsiyalarning moliyaviy bo'limlari mablag'larning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga qisqa muddatli investitsiyalardan yuqori foyda olish uchun o'tkazadilar.

Portfel investitsiyalar quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- aksioner qimmatbaho qog'ozlari - bozor muomalasidagi pul hujjati bo'lib, hujjat egasining ushbu hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan mulkiy huquqga egaligini tasdiqlaydi;

- zayom qimmatbaho qog'ozlar - bozor muomalasidagi pul hujjati bo'lib, zayom egasining ushbu hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan munosabatini tasdiqlaydi.

Portfel investitsiyasining bevosita investitsiyalardan afzallik tomoni shundaki, ular tugatilish vaqtida qimmatbaho qog'ozlar tezda naqd valyutaga almashtirib olinishi mumkin. Portfel investitsiyalarning amalga oshirilishining asosiy sababi –tavakkalchilik darajasini hisobga olgan holda xorijiy investor o'z mablag'larini xorijda maksimal foyda keltiruvchi qimmatbaho qog'ozlarga joylashtirishi mumkin. Ma'lum bir ma'noda portfel investitsiyasi pulni inflyatsiya va spekulyatsiya yo'li bilan foyda ko'rishdan saqlash vositasi sifatida qaraladi. Bunda investitsiya qilinayotgan soha ham, qimmatbaho qog'oz turi ham hech qanday ahamiyatga ega emas, u ustama kurs o'sishiga qarab istalgan foydani berishi kerak bo'ladi.

Yuqorida portfel va bevosita investitsiyalar o'rtasidagi farq jadval ko'rinishida (1.1.1-jadval) yaqqol tasvirlab berilgan. Jadvalda portfel va bevosita investitsiyalarni kapital chiqarish maqsadi, maqsadga erishish yo'llari, maqsadga erishish usullari, daromad shakllari kabi belgilari keltirilgan.

Ishlab chiqarish nazariyasi va makroiqtisodiyotda esa investitsiyalar yangi kapitalini yaratish, shakllantirish hamda mavjudlarini ko'paytirish jarayoni hisoblanadi.


Xorijiy mamlakatlarning tajribasi va investitsiya to'g'risida mamlakatimizda qabul qilingan qonunlarning tahlilidan kelib chiqib, investitsiyaning shartli ravishda uchta turini ajratish mumkin (1-chizma).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir investitsiya turining o'ziga xos o'rni bo'ladi. Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aktsiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi.

Aqliy (intellektual) investitsiyalar miqdori juda rang-barangdir, ya'ni ular mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mehnatga oid shakldagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat. Aqliy mehnatga oid haq-huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mualliflik huquqlari, Onou-xau, kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi.

Investitsiyalarni quyidagi 3 ta turi mavjud:



1.1.1-rasm. Investitsiyalarning turkumlanishi.⁶

⁶ Валдайцев С.В., Воробьев П.П. Инвестиции. Уч. М.: ТК Вентри, издательство Проспект. 2004. – стр. 76.

1. Kapital investitsiya. Ular jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltiruvchi va takror ishlab chiqishga, shuningdek, ishlab chiqarishning boshqa shakillarini ishlab chiqarishga qo'shadigan investitsiyalar kiradi.

2. Innovatsion investitsiyalar. Bularga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o'zlashtirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

3. Ijtimoiy investitsiyalar. Ular qatoriga inson salohiyatining malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarnin boshqa shakillarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

1.2.Xorijiy investitsiyalar turlari va uning turizm sohasida tutgan o'rni.

Har qanday jamiyatning yashashi uchun ishlab chiqarish uzluksiz davom etishi shart. Unda uzilish yuz bersa kishilarning hayotiy ehtiyojlari qondirilmaydi. Ishlab chiqarishni doimiy takrorlanib turishi va umuman iqtisodiyotning ahvoli investitsiyalarning holatidan kelib chiqadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki hech qaysi davlat jahon iqtisodiyotidan ayri holda tashqi yordamlarsiz boshqacha aytganda xorijiy sarmoya va ko'maklarsiz iqtisodiy taraqqiyotga erishishi mumkin emas.

Investitsiyalash kim tomonidan amalga oshirilganligi nuqtai nazaridan ikki turga, ya'ni ichki va tashqi investitsiyalarga bo'linadi.

Ichki investitsiyalar bu mazkur davlat hududida ichki investorlar tomonidan yo'naltiriladigan investitsiyalardir. Tashqi investitsiyalar yoki xorijiy investitsiyalar – chet el mulkdorlarining mutloq boshqa mamlakat iqtisodiyotining qonun bilan ta'qiqlanmagan turli tarmoqlariga yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida muayyan muddatga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklardir.

Chet el investitsiyalari xorijiy investorlar tomonidan yo'naltiriladigan investitsiyalar hisoblanadi. U xorijiy mulkdorlarning boshqa mamlakat iqtisodiyotining turli tarmoqlariga (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa tarmoqlar) daromad olish maqsadida muayyan muddatga qo'yiladigan kapitaldir⁷

⁷ Soliyev A.S., Mirzaaxmedov S.X., Jumaxanov Sh.Z —Qo'shma korxonalar geografiyasi.-Namangan.: Namangan nashriyoti, 2006.

Chet el investitsiyalari deganda, milliy iqtisodiyotga qo'yilgan xorijiy mamlakatlarning valyutadagi pul mablag'lari, qimmatbaho qog'ozlari, shuningdek, kreditlar ko'rinishidagi kapital qo'yilmalarining barcha shakllari tushuniladi.

Xorijiy investitsiyalarning ichki investitsiyalardan farqi, ularning manba va kapital egasi jihatidan hududiy farqlanishi hamda olingan natijaga egalik qilish munosabatlarida o'z aksini topadi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni amalga oshirishda ular bilan bog'liq barcha risk (xatar)lar oldindan hisoblab chiqilgan bo'ladi. Ya'ni, xorijiy investitsiyalar chet ellik investorlarning o'z kapitalidan unumli foydalanish maqsadida boshqa mamlakat iqtisodiyotiga minimal risk asosida yo'naltirib, imkon qadar qisqa vaqt ichida ko'proq foyda olishga erishish maqsadida mablag'larning joylashtirilishidir.

Bir davlatdan boshqa davlatga daromad olish uchun yo'naltirilgan har qanday shakldagi mulkni to'la qonli xorijiy investitsiya deyishimiz mumkin. Ammo shunday mulk shakllari borki, biz ularni xorijiy investitsiya deya olmaymiz. Masalan, elchixonada chet davlat mulki hisoblanadi, yoki xorijiy fuqaro shaxsiy uy sotib olsa, - bu xorijiy shaxs mulki hisoblanadi, lekin xorijiy investitsiya bo'la olmaydi.

Chet el investitsiyalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga ko'ra —chet el investorlari asosan daromad (foйда) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari⁸ deb e'tirof etiladi.

Ma'lumki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar boshqa turdagi mablag'larga nisbatan ancha barqaror investitsiya manbai hisoblanib, ular qisqa muddatli kapital oqimlaridan farqli o'laroq uzoq muddatli kapital qo'yimalarga bo'lgan talabni qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini oshiradi va mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida o'z o'rnini topishida, uning jahon

⁸ Gover.uz/O'zbekiston Respublikasining —Chet el investitsiyalari to'g'risidagi Qonuni

iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvida hamda tashqi savdo aylanmasining yuksalishida va eksport salohiyati yanada rivojlanishida ijobiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi va ular ishtirokidagi korxonalarining faol ish olib borishi —nou-xau, yangi texnologiyalar, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, mahalliy sanoat va xom ashyo mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi, shuningdek, mazkur korxonalarda mehnat qilayotgan ishchilar turmush darajasining yaxshilanishi bilan bog'liq qator ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Mamlakatda iqtisodiyot rivojlangani sari investitsiya faoliyati ham bunga to'g'ri proporsional ravishda rivojlanadi. Aholi hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zida jamg'arilgan daromadlarini foyda olish maqsadida investitsiyaga yo'naltirishadi. Buning natijasida iqtisodiy o'sish jadallashadi hamda o'sha hududda yaratilgan mahsulot hajmi ortib boradi.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarning ikkita turi mavjud. Ya'ni, bular real va portfelli investitsiyalardir.⁹

Real (kapital hosil qiluvchi) investitsiyalar bu - real aktivlarga qo'yilmalar, ya'ni asosiy fondlar yoki aylanma aktivlarni oshirish maqsadida yangi korxonalar, ishlab chiqarish, texnologik liniyalar, turli xildagi ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish (turizm) va ishlab chiqarish ob'ektlari qurish yoki mavjudlarini qayta ta'mirlash, texnik qayta jihozlashga qo'yilmalardir. Portfelli investitsiyalar bu – davlat, korxonalar, banklar, investitsion fondlar, sug'urta va boshqa kompaniyalarning qimmatli qog'ozlarini sotib olishga qo'yilmalar hisoblanadi. Bu holatda investorlar qimmatli qog'ozlarga egalik qilishdan daromad olgani holda ishlab chiqarish kapitalini emas, balki moliyaviy kapitalni oshiradi. Bunda qimmatli qog'ozlar sotib olishga sarflangan pul mablag'lari real qo'yilmalarni shu qimmatli qog'ozlarni chiqargan korxonalar va tashkilotlar amalga oshiradi.

Ijtimoiy investitsiyalarga inson salohiyatini, ko'nikmalarini va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar kiradi. Bu yo'lda xorijiy investitsiya siyosatining ahamiyati juda katta. Chunki, investitsiyalar iqtisodiyotda

⁹ Xaydarov N. X., Ubaydullaeva S.F. —Xorijiy investitsiyalarni muvofiqlashtirish masalalari. Toshkent - 2011y. 24-25 betlar.

tarkibiy o'zgarishlar, texnik va texnologik yangilanishlar, korxonalarni qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni rag'batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga imkon yaratadi.

Xorijiy investitsiyalarning tarkibiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda moddiy, moliyaviy, intellektual va boshqa turdagi boyliklar mavjudligini ko'rish mumkin. O'z navbatida bu tasnif xorijiy investitsiyalarga ham taaluqlidir.

Xorijiy investitsiyalarni mulkchilik shakliga ko'ra xususiy, davlat, xorijiy va aralash investitsiyalarga tasniflash maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga xorijiy investitsiyalarni yo'nalish ob'ektiga qarab moliyaviy va real investitsiyalarga ham ajratish mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy investitsiyalarning tarkibida asosiy o'rinni shaxsiy mulk egalarining investitsiyalari tashkil etadi.

Chet el investitsiyalari kapital eksport qiluvchi mamlakatlarning importyor mamlakatlar iqtisodiy sub'ektlari hamda qushma korxonalar real va moliyaviy aktivlariga kiritgan mablag'laridir. Chet eldan investitsiyalash kapital oqimining bir iqtisodiyotdan boshqasiga chiqib ketishini bildiradi, boyliklarni yanada foydaliroq shartlarda joylashtirish va investitsiyalar chet ellikka – kapital egasiga qaytishiga qadar nisbatan uzoq vaqt davomida mablag'lar oqimini ta'minlash maqsadlarini nazarda tutadi. Ularga oqib ketish, qochish, ya'ni mamlakatlararo kuchib yurish xos. Chet el investitsiyalari mohiyat jihatidan uz milliy investiiya muhitini uzga muhitga almashtiradi. Xavfsizlik, daromadlilik, kapitallashuv va likvidlikdan tashqari chet el investitsiyalarining uziga xos muhim belgisi – aniq maqsadlarni kuzlashi hisoblanadi¹⁰. Ularning e'tiborini tortuvchi iqtisodiyot ham uz maqsadlariga erishishga intiladi. Bu maqsadlar samaradorlik, ishlab chiqarishni ustirish, bozorlarga kirib borish yoki noiqtisodiy mazmundagi vazifalar bulishi mumkin. Shu sababli'zaro manfaatlarning mos tushishi, ishonchli munosabatlar, kirib borish sharoitlarini hisobga olish investitsiyalarning bir mamlakatdan boshqasi ko'chishining asosi hisoblanadi.

¹⁰ G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: «Moliya» nashriyoti, 2013 yil. 32-bet.

O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasi jahon turistik jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ekspertlarning tahlilishuniko‘rsatmoqdaki, keying yillarda mamlakat turizm sohasi davlat investitsiyalarisiz va dotatsiyalarisiz mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmini oshirib borayotga iqtisodiyot tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Shularni hisobga olib, turizm sohasi mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etishini va u XXI asr jahon xo‘jaligining ustuvor tarmoqlaridan biri ekanligini alohida ta’kidlash lozim. O‘zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zarur manbalarga ega. Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan Vatanimiz qulay tabiiyqlim sharoitlariga, boytarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega.

Zamonaviy turistik tashkilot va korxonalar bugungi kunda yangi axborot tizimlari, kompyuter texnologiyalaridan foydalanuvchi texnika bilan ta’minlangan yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga ega. Hozirgi davrda mamlakatni iqtisodiy modernizatsiyalash bosqichida turizm va mehmondo‘stlik industriyasi sohasidagi yechimini kutib turgan masalalar qatorida, turizm industriyasi mehnat bozorida ishlovchi xodimlarga qo‘yiladigan malakaviy talablarga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash dolzarb masala bo‘lib turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirishning istiqboldagi maqsad respublikaning milliy-madaniy tiklanishi, milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida turizmni rivojlantirish borasidagi ijtimoiy -iqtisodiy va xo‘jalik masalalarini hal qilishdir (bu tarmoq BMT Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan Turizm partiyasi talablariga javob beradigan bo‘lishi kerak)

Turizm sohasi oldida turgan asosiy vazifa – O‘zbekistonning tabiiy iqlimiy, rekreatsion, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy madaniy salohiyatini hisobga olgan holda ichki va xalqaro turizm ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan yuqori rentabelli turistik tarmoqni yaratishdan iborat. Yildan yilga O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyuruvchi yevropalik yoki MDH mamlakatlari sayyohlari ortib bormoqda.

Xorijlik tashrif buyuruvchilarning asosiy qismi 2017-yil yakunlari MDH davlatlari orasida Qozog‘iston Respublikasiga - 1783,8 ming kishi (yoki MDH davlatlaridan kelganlarning - 67,7 %), Tojigiston - 261,9 ming kishi (9,9 %), Rossiya- 143,9 ming kishi (5,5 %), qolgan davlatlar 16,9 % (bular Turkmaniston - (62,5 ming kishi), Ozarbayjon- (4,3 ming kishi), Belarus- (3,0 ming kishi), Ukraina - (0,7 ming kishi) ga to‘ri keladi¹¹.

2018-yilda O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni o‘tgan yilga nisbatan 2,3 marta ko‘p. O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari 6433,0 ming kishini tashkil etsa, MDH Davlatlaridan O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari 6015,9 ming kishini tashkil etadi. Bu esa jami tashrif buyuruvchilarning 93,5 % ini tashkil etadi. Uzoq xorijiy davlatlardan esa 417,1 ming kishi (6,5 %) tashrif buyurgan. 2018- yilda chet elga ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda 2 marta ko‘p. MDH davlatlariga ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari 13308,0 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, bu jami tashrif buyurganlarning 96,2 % tashkil etadi, uzoq xorijiy davlatlarga esa 530,6 ming kishi (yoki 3,8 %) tashrif buyurgan.

1.2.1 - jadval


2014- 2018-yillarda O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni .¹²

2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil
1938,0 ming kishi	2034,3 ming kishi	2157,7 ming kishi	2847,9 ming kishi	6433,0 ming kishi

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi./Stat.uz//turizm tahlili 2017yil

¹² O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi./Stat.uz//turizm tahlili 2018yil

Xorij davlatlaridan O‘zbekiston Respublikasiga kelgan fuqarolar sonini tahlilidan ko‘rinadiki, oxirgi ikki yilda tashrif buyurgan chet el fuqarolarining soni 2,3 martaga ortgan. Masalan, 2017 yilda bu ko‘rsatkich 2,8 million kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2018 yilda esa 6,4 million kishini tashkil etgan. Oxirgi ikki yilda chet elga tashrif buyurgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni sezilarli darajada ortdi. Masalan, 2017-yilda bu ko‘rsatkich 6,8 million kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2018-yilda esa 13,8 million kishini tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich esa yurtimizda turizm sohasini yanada rivojlantirishning amaliy natijasidir. Bugungi kunda Davlatimiz rahbari tomonidan O‘zbekiston hududiga tashrif buyuruvchi har bir turist uchun ko‘plab imkoniyatlar va qulayliklar yaratilgan bo‘lib, xizmat ko‘rsatish sohasidagi band aholiga katta masuliyatli bir qator vazifalarni yuklaydi. Mamlakatga turistlarning oqimi esa ushbu soha kadrlari uchun ko‘plab ish o‘rinlarini yaratishga sabab bo‘ldi va mamlakat iqtisodiyotini yanada barqarorlashtiradi. YaIMda turizmning ulushi 2016 yilda 2,4 % ni tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2014 yilda 2,7 %, 2015 yilda esa 2,6 % tashkil etgan. Turizmning eksportdagi ulushi esa 2014 yilda 7,8 %, 2015 yilda 9,5 %, 2016 yilda esa 10,4 % tashkil etgan.



1.2.1-rasm

2018-yilda O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari soni.¹³

¹³ Stat.uz./ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi /2018-yil O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati

O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy qismi Qozog'iston Respublikasidan 2456,9 ming kishi (38,2 %), Tojikistondan 1700,7 ming kishi (26,4 %), Qirg'izistondan 1101,5 ming kishi (17,1 %), Rossiyadan 460,2 ming kishi (7,2 %). Uzoq xorijiy davlatlardan esa Turkiyadan 74,8 ming kishi (1,2 %), Xitoydan 37,1 ming kishi (0,6 %), Janubiy Koreyadan 32,7 ming kishi (0,5 %), Xindistondan 22,2 ming kishi (0,3 %), Germaniyadan 19,1 ming kishi (0,3 %), Yaponiyadan 17,2 ming kishi (0,3 %) tashrif buyurgan.

CHet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy qismi MDH davlatlaridan Qozog'iston Respublikasiga 51,6 % (7139,8 ming kishi), Qirg'iziston Respublikasiga 23,1 % (3196,8 ming kishi) va Rossiyaga 8,5 % (1178,7 ming kishi) tashrif buyurgan. Uzoq xorijiy davlatlardan esa Janubiy Koreyaga (79,7 ming kishi), Xitoy, AQSH, Germaniyaga tashrif buyurgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagi "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3509-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 noyabrdagi "2018 yil 19 - 21 noyabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan Turizm sohasidagi birinchi xalqaro investitsiya forumini samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 931-sonli qarori, shuningdek Hindiston Respublikasi (01.10.2018 yildan) va Misr Arab Respublikasi (05.09.2018 yildan) hukumatlari bilan sayyohlik sohasidagi hamkorlik to'g'risida kelishuvlar imzolandi.

Xorijiy investitsiyalarning turizm sohasida tutgan o'rni bugungi kunda katta ahamiyat kasb etishini yuqoridagi O'zbekiston Respublikasiga turli xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurgan chet el fuqarolarining soni asosida yana bir bor ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida turizmga yo'naltirilgan investitsiyalarning aksariyat qismi mamlakatda turizm infrastrukturasi yaxshilash, barcha xorijlik mehmonlar uchun mamlakatda barcha shart – sharoitlarni yaratish va respublikada turizm sohasi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan barcha sohalarni tubdan jahon standartlariga mos holda rivojlanishini taqozo etadi.

1.3. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning ma'muriy – huquqiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasidagi qonunlar Oliy Majlis tomonidan belgilab beriladi. O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgustdagi «Turizm to'g'risida»gi qonuniga muvofiq mamlakatimizda turizmni boshqarish va rejalashtirish organlari tizimi yaratilgan va faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Bugungi kunda hukumat tomonidan turizm sohasini rivojlantirishga e'tibor kuchayib bormoqda, buni prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlar misolida ham ko'rib o'tish mumkin. Ushbu qarorlarning bugungi kundagi amaliy ijrosida turizmni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalar va harakatlarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning barcha vazifalari katta o'rin olgan . Bu qarorlar asosan respublikada turizmning barcha turlarini rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini va infrastrukturasi vujudga keltirish, turistlarga xizmat ko'rsatish darajasini jahon andozalariga ko'tarish, O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el valyutasi tushumini ko'paytirish, respublikadagi tarixiy va madaniy yodgorliklar haqidagi ma'lumotlarni jahonga yoyish, turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash, yangi ish joylarini tashkil etish kabi qator masalalarni hal qilish bilan bog'liq muammolarni yechishga qaratilgan. Respublika-da xalqaro turizmni yangi bosqichga ko'tarish va samarali faoliyat ko'rsatishga mos keladigan yangi sharoit va mexanizm vujudga keltirish bugunning dolzarb mavzularidan hisoblanadi.

Mamlakatimizda ish o'rinlari yaratish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, valyuta tushumlarini ko'paytirish, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish kabi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yaqin istiqbolda hal qilish uchun keng salohiyatga ega bo'lgan turizm sohasini rivojlantirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilinishi davlatimiz tomonidan turizm sohasida amalga oshirilayotgan siyosatning mantiqiy davomi bo'lib, turizm sohasini jadal

rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy muhitni yaratgan holda, eng samarali tartibni joriy etish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish, yurtimizga keladigan turistlar oqimini ko'paytirish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan. Xususan, qaror bilan sohada me'yoriy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekistonga sayohatlarni arzonlashtirish, yurtimizning barcha hududlarida turizmni va soha bilan bog'liq infratuzilmani rivojlantirish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va yangi turizm obyektlari tashkil etish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan 2018-2019-yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Ayni paytda mamlakatimiz hududlarida zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu maqsadda Dasturga muvofiq, Andijon viloyati Xonobod shahrida dam olish hududlari, Jizzax viloyati Forish va Arnasoy tumanlarida Aydar-Arnasoy ko'llari sohilida beshta yangi zamonaviy dam olish hududlari tashkil etish, Qashqadaryo viloyati Shahrisabz va Qarshi shaharlarida to'rt yulduzli mehmonxonalar, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani Chimyon tog' massivida mehmonxona majmuasi barpo etish, shuningdek, Navoiy viloyatida To'dako'lning janubiy sohilida ichki turizm va Aydarko'l sohillarida xorijlik turistlar uchun plyajlar tashkil etish ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, qarorda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri rahbarligida 2018-2019-yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturiga kiritilgan tadbirlarning amalga oshirilishini muntazam o'rganish tizimini joriy qilish belgilangan. Shu maqsadda: Dastur ijrosi ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish, vazirlik va idoralarning bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish, yurtimizda turizm sohasi rivojiga to'sqinlik qilayotgan masalalarni tezkor ko'rib chiqish va hal qilish uchun Vazirlar Mahkamasi huzurida Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi; Rejalashtirilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida, sifatli va to'liq ijro etilishini ta'minlash maqsadida

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari rahbarligida faoliyat yuritadigan turizmni rivojlantirish bo‘yicha hududiy kengashlar tashkil etildi. Qarorda turizmni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni bajarishga yo‘naltirilgan qator topshiriqlar belgilangan:

O‘zbekistondagi muqaddas qadamjolarga ziyorat turizmi yo‘nalishi bo‘yicha sayyohlarni jalb qilish, bunda logistika, jumladan, charter reyslarni tashkil etish masalalarini hal qilish;

Buxoro va Samarqand shaharlaridagi turizm hududlari tajribasi asosida Urganch, Toshkent shaharlari va Farg‘ona viloyatida turizm hududlari, shuningdek, Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanida tog‘ klasterlarini bosqichma-bosqich tashkil etish;

Tashkil etilayotgan turizm hududlari va tog‘ (tog‘oldi) turizm klasterlariga chet el sarmoyadorlarini jalb qilish, shuningdek, yangi mehmonxonalar qurish uchun yurtimizga yetakchi mehmonxona brendlarini taklif qilish yoki mamlakatimizdagi mehmonxona xo‘jaliklarini ular boshqaruviga topshirish.

Shu munosabat bilan xorijlik turistlar uchun viza tartibotini soddalashtirish va ziyorat turizmini tashkil etish bo‘yicha takliflarni muntazam kiritib borish ko‘zda tutilmoqda. Mazkur vazifa ijrosini ta‘minlash maqsadida xorijlik fuqarolar uchun viza va ro‘yxatga olish tartibini bosqichma-bosqich soddalashtirish bo‘yicha takliflarni ushbu davlatlar bilan ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanish darajasidan, jahon turizm bozorining kon’yunkturasi hamda xalqaro va mintaqaviy vaziyatdan kelib chiqqan holda tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi doimiy faoliyat yuritadigan ishchi guruh tuzilmoqda.

Shu bilan birga, turizm sohasidagi xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan qator xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli kelishuv va shartnomalar tuzishni tashkil etish rejalashtirilmoqda. Qarorning muhim jihatlaridan biri, uning turizm

sohasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilganidir. Shu maqsadda:

– tadbirkorlik subyektlariga yangi mehmonxonalar va turizm infratuzilmasining boshqa inshootlarini qurish, mavjudlarini modernizatsiya qilish uchun uzoq muddatli (15-yilgacha) kreditlar ajratish amaliyoti joriy qilinmoqda, bunda kredit va foizlarni qoplash uchun mehmonxonalarning moliyaviy tushumi va mavsumiy sharoitidan kelib chiqadigan talablar taqdim qilinmoqda;

– adirkorlik subyektlariga chet el valyutasidagi mablag'larni o'tkazish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar, terminallar ijarasi, erkin konvertatsiya qilinadigan valyutadagi naqd pullarni inkassatsiya qilish va chet el valyutasida operatsiyalar amalga oshirish bilan bog'liq boshqa xizmatlar uchun yig'implarning (komissiya to'lovlarining) maqbul miqdorlari belgilanmoqda;

– 2022-yil 1-yanvarga qadar mehmonxonalar boshqaruv xodimi sifatida jalb qilingan malakali xorijlik mutaxassislarning mehnatiga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov to'lashdan, shuningdek, mehmonxonalarga boshqaruv xodimi sifatida jalb qilinadigan malakali xorijlik mutaxassislarning daromadlari jismoniy shaxslarning daromad solig'idan ozod etilmoqda.¹⁴

Respublikaning sayyohlik salohiyatini rivojlantirish va yanada ko'proq mehmonlarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2019 yildan boshlab bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi. Quyidagi qaror va farmonlarda buning yaqqol dalilini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019 yildagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019 yildagi PQ-4095-son "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.03.2019 yildagi 198-son "Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.02.2019 yildagi 119-son "2019-2020 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning mamlakatimizni 2018-2019-yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risidagi qaroriga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2017-yil 16-avgust

O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining 26.03.2019 yildagi 3146-son. "Turistik yo'llanma (voucher)ning namunaviy shaklini tasdiqlash to'g'risida" gi Qarori shular jumlasidandir.

Yana bir misol tariqasida O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va oldinga qo'yilgan maqsadlarni ko'rib chiqsak bo'ladi.

Mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkonini berdi.

Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlillar turizm tarmog'ini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asosning nomukammalligi, alohida turizm xizmatlarini ko'rsatish qoidalarining, shuningdek, chet el fuqarolarining toifalari, bo'lish muddatlari va maqsadlari bo'yicha dunyo amaliyotida keng qo'llaniladigan alohida viza rejimlarining mavjud emasligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, joylashtirish vositalari va infratuzilma obyektlarining, ayniqsa, turizm mavsumida yetishmasligi, turli transportlarda yo'lovchilarni tashish tizimining yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi, shuningdek, turistlarni mavjud turizm salohiyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashni tashkillashtirish darajasining pastligi, ichki turizmni, mamlakat hududlaridagi madaniy meros obyektlarining va ziyoratning o'ziga xosliklarini targ'ib qilish bo'yicha marketing kampaniyalarining samarasizligi turizmni jadal rivojlantirishga salbiy tasir qilmoqda.

Turizmni, avvalambor, xususiy sektorda rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, milliy turizm mahsulotini dunyo bozorida faol va kompleks ravishda targ'ib qilish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga 2018 yil 28 dekabrda qilgan Murojaatnomasida bildirilgan takliflarni amalda tatbiq etish maqsadida hamda 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq quyidagilarni aytib o'tsak bo'ladi.

a) quyidagilarni nazarda tutuvchi **2019–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi** quyidagilarni o'z ichiga oladi:

turizm faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni implementatsiya qilish;

turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm muhitini yaratish;

transport logistikasini rivojlantirish, ichki va tashqi yo'nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish;

turizm bozorining turli segmentlariga yo'naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish;

respublika ichida turizm xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan turizm faoliyati subyektlarining faolligini rag'batlantirishni ta'minlovchi ichki turizmni rivojlantirish;

O'zbekiston Respublikasi turizm mahsulotini xalqaro va ichki turizm bozorlarida targ'ib qilish, mamlakatning sayohat va dam olish uchun xavfsiz sifatidagi imidjini mustahkamlash;

turizm tarmog'i uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.

Konsepsiya har yillik alohida chora-tadbirlar rejasini tasdiqlagan holda uning asosiy yo'nalishlari va maqsadli parametrlarining tegishli davr mobaynida bajarilishiga qarab bosqichma-bosqich amalga oshiriladi;

b) 2019–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha 2019 yilga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasi quyidagi maqsadlarni o'zida mujassamlashtirgan:

O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tegishli yil bo'yicha Chora-tadbirlar rejasining bajarilishi yakunlarini tahlil qilgan holda har yili 1 dekabrga qadar keyingi yil uchun Chora-tadbirlar rejasi loyihasini ishlab chiqadi va Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritildi.

Barcha rejalashtirilgan chora-tadbirlarning samarali tashkil etilishi, o'z vaqtida va sifatli bajarilishi bo'yicha vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish Konsepsiya va Chora-tadbirlar rejasining vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar tomonidan bajarilishini monitoring qilish, shuningdek, xorijda O'zbekistonning turizm salohiyatini targ'ib qilish va xorijiy turistlarni jalb qilishga qaratilgan qo'shma tadbirlarni o'tkazish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni har yil tasdiqlash; har yillik Chora-tadbirlar rejasining bajarilishidan kelib chiqib, lozim bo'lganda, Konsepsiya parametrlariga o'zgartirish kiritildi.

2019 yil 1 fevraldan boshlab 3-ilovaga muvofiq mamlakatlarning fuqarolari uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga kirgan kundan e'tiboran **30 kunlik muddatga vizasiz rejim** belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Tashqi ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmatining quyidagi takliflariga rozilik berildi.

a) 2019 yil 1 fevraldan boshlab fuqarolari elektron kirish vizasini olish imkoniyatiga ega bo'lgan mamlakatlar ro'yxati kengaytirildi.

b) 2019 yil 15 martdan boshlab 30 kunlik amal qilish muddati bo'lgan elektron kirish vizasining quyidagi turlarini berish tizimini joriy etish:

ikki martalik, konsullik yig'imi 35 AQSH dollari miqdorida;

ko'p martalik, konsullik yig'imi 50 AQSH dollari miqdorida;

v) O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyuradigan **xorijiy fuqarolarning ayrim guruhlari uchun 5-ilovaga muvofiq qo'shimcha (elektron bo'lmagan) kirish vizalari toifalarini** berishni joriy etish.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyuradigan xorijiy fuqarolarning ayrim guruhlari uchun qo'shimcha (elektron bo'lmagan) vizalari toifalarini joriy etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ko'rib chiqildi.¹⁵

Xorijiy mamlakatlar fuqarolariga O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini olish huquqi taqdim etildi. Ushbu huquq:

Toshkent viloyati va Toshkent shahrida – 400 000 AQSH dollari ekvivalentidan kam bo'lmagan miqdorda;

Samarqand, Buxoro, Namangan, Andijon, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida – 200 000 AQSH dollari ekvivalentidan kam bo'lmagan miqdorda;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va respublikaning boshqa viloyatlarida – 100 000 AQSH dollari ekvivalentidan kam bo'lmagan miqdorda **ko'chmas mulkni sotib olgan taqdirda beriladi.**

O'zbekistonning logistika jozibadorligini tubdan yaxshilash, shuningdek, mahalliy aeroportlarda parvozlarga xorijiy aviakompaniyalarni jalb etish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha ishchi guruh tashkil etiladi.

Quyidagilar Ishchi guruhning asosiy vazifalari etib belgilandi:

birinchi navbatda Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan tovar aylanmasi, tashiladigan yo'lovchilar soni va investitsiyalarni ko'paytirish uchun respublikadagi transport aloqa tizimini tubdan yaxshilash;

“ziyorat” turizmi yo'nalishi orqali turistlar oqimini oshirish,

¹⁵ <https://kun.uz/uz/news/2019>.

shu jumladan, Indoneziyadan doimiy aviaqatnovlarni ochish uchun aviakompaniyalarni jalb qilish masalalarini tezkorlik bilan hal etish;

turistlar oqimini jalb qilish maqsadida parvozlarning strategik muhim yo'nalishlarini aniqlash;

mamlakat aeroportlarida yangi yo'nalishlarni yo'lga qo'yish maqsadida xorijiy tashuvchilar uchun moslashuvchan chegirma va preferensiyalar tizimini ishlab chiqish;

o'zaro bog'lovchi qatnovlarni, shu jumladan, "mavsumdan tashqari" davrda tashkil etish orqali uzoq magistral yo'nalishlarda yo'lovchilar sonini ko'paytirish;

xorijiy va mahalliy aviakompaniyalar bilan muzokaralar o'tkazish, shuningdek, ularning takliflarini ko'rib chiqish va ularni aeroportlar bo'yicha to'g'ri taqsimlash;

charter reyslarini kelishish mexanizmini soddalashtirish;

mamlakatdagi ayrim aeroportlarda "Ochiq osmon" rejimini joriy etish;

mahalliy aviakompaniyalar tashkil etilishiga ko'maklashish maqsadida normativ-huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish;

mamlakat ichkarisida intermodal tashuvlarni (avtobus, temir yo'l va aviatashuvlar) ta'minlash uchun turistlarning transport tashuvini yanada rivojlantirish bo'yicha hujjatlarni ishlab chiqish;

xorijiy yetkazib beruvchilardan aviakerosin sotib olish mexanizmini xarid jarayonida shaffoflik va raqobatni ta'minlagan holda takomillashtirish.

Ushbu qarorlar mamlakatimizda turizm sohasining yanada rivojlanishiga yangi sur'at baxsh etib, unda belgilangan chora-tadbirlar ijrosiga xorijlik turistlar oqimi va turizm xizmatlari eksportini kengaytirish, tarmoqda yangi ish o'rinlari yaratish asosida aholining bandlik darajasini oshirish, mehmonxonalar, sayyohlarni joylashtirishning boshqa vositalari va turizm faoliyati subyektlari sonining ko'payishiga xizmat qiladi.¹⁶

¹⁶ "Xalq so'zi" gazetasi № 114. 4-iyun 2014yil.

II-BOB.O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING XUSUSIYATLARI VA INVESTITSION MABLAG'LARDAN SAMARALI FOYDALANISH

2.1.O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning tahlili.

Bugungi kunda O'zbekistonda turizm sohasi jadal va barqaror rivojlanayotgan tarmoqqa aylandi va uning faoliyat yo'nalishlari kring taraqqiy qilib bormoqda.Turizmning rivojlanishi tufayli xizmat ko'rsatish sohasi ham alohida rivojlanib, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi ortib bormoqda va xizmat ko'rsatishning servis, sifat kabi alohida jihatlariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Turizm rivojlanishidagi hozirgi zamon tendentsiyalari uning ham jahon iqtisodiyotiga ham alohida mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotiga ta'siri ortib borayotganligini ko'rsatmoqda. Turizm aholining o'ziga hos ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirib milliy iqtisodiyotning yirik mustaqil sohaga aylanib bormoqda. Ushbu ehtiyojlarning xilma xilligi tufayli nafaqat turistik korxonalar balki boshqa soha korxonalari ham qatnashib xalq xo'jaligi kompleksi rivojiga multiplikativ ta'sir etadigan omillardan biri sifatida turizm namoyon bo'ladi.

Ko'pgina mamlakatlardan farqli o'laroq turizm sohasi yetarlicha rivojlanmagan O'zbekistonda turizm industriyasi rivoji pul tushumlari ko'payishi, ishsizlik darajasini pasaytirish, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy holatini barqarorlashtirishning bir yo'nalishi sifatida davlat tomonidan tartibga solish jarayonlarini faollashtirish, turistik xizmatlar bozorini o'rganish, turistik ta'lim tizimini kengaytirish, muayyan mintaqalar rivojini ta'minlaydigan dasturlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Turizm umumiy iqtisodiy o'sishga kam rivojlangan hududlarning rivojlanishiga ko'maklashadi. Yaxshi rivojlanmagan hududlarda turistik markazlar ochish ko'pgina davlatlarning asosiy usuli xisoblanadi. Tog' va qishloq joylarida turistik markazlarning tashkil qilinishi shu joylarning o'zlashtirilishiga aholi turmush sharoitining qandayligiga bog'liq. Turizm rivojining kelajagini

aniqlash uchun avvalo moddiy-texnika bazasi, turistik resurslar ko'lamini mazkur turistik maxsulotga bo'lgan talabni chuqur o'rganish lozim. Bu ishda turistik resurslar bahosini haddan tashqari oshirib yubormaslik lozim. Masalan, ma'lum bir mintaqadagi tarixiy yodgorlik faqat shu joyning o'zi uchungina qiziqarli bo'lishi mumkin, xalqaro maydonda esa boshqa ko'plab yodgorliklarning u qadar ahamiyati bo'lmasligi turistlarni o'ziga jalb qilmasligi mumkin va shuning uchun ham bunday tumanlarda moddiy texnika bazasini yaratishdan ko'p foyda olish amri mahol. Shunday qilib, tumanda barpo etilgan turistik markaz uning rivojlanishiga olib keladi.

Turizm bu iqtisodiy kompleks bo'lib, uning rivojlanishi jahon xo'jalik jarayonlari va munosabatlari bilan tushuntiriladi. Boshqa tarafdin turizm iqtisodiy o'sishning muhim katalizatori bo'lib, mamlakatlar o'rtasida yalpi milliy maxsulotni taqsimlash kanali sifatida qatnashadi va tovar, xizmatlar olib chiqilishi kuzatilmaydi. Masalan, yaponlar Filippinga dam olishga borsa, o'zbeklar Turkiyaga borsa, ular nafaqat u yerga ishlab topgan mablag'larining bir qismini olib borishadi, balki Filippin va Turkiyada yangi ish o'rinlari yaratishadi. Turizm iqtisodiy xodisa sifatida:

yig'ish va transportirovka qilish mumkin bo'lmagan xizmatlar turi sifatida ishtirok etadi;

yangi ish o'rinlari yaratadi va ko'pincha tezkor rivojlanish va yangi hududlarni o'zlashtirish pionerlari bo'lishadi;

turizmga ixtisoslashgan mamlakat foydasiga milliy daromadni qayta taqsimlash mexanizmi sifatida ishtirok etadi;

mahalliy infratuzilma rivojlanishi va mahalliy aholi turmush darajasi o'sishi multiplikatori xisoblanadi;

investitsiyalarning yuqori samaradorligi va tez qaytishi bilan xarakterlanadi;

insonning va xo'jalik sohalarining barcha turlari bilan taqqoslasa bo'ladi.

Shunday qilib turizm mamlakat va uning hududi iqtisodiyotiga faol ta'sir ko'rsatadi. Turizmga iqtisodiy xodisa sifatida birinchilardan bo'lib P.Rotrou

(P.Rotrow) e'tibor berib, mamlakat rivoji iqtisodiy bosqichlari va unda turizm rivojlanishi xususiyatlari o'rtasidagi korrelyatsiyani aniqladi .

2.1.1- jadval

Turizmning mamlakat hududi iqtisodiyotiga faol ta'sir ko'rsatishi¹⁷

Iqtisodiy bosqichlar	Ba'zi xususiyatlar	Mintaqalar
An'anaviy jamiyat Barqaror an'analar, juda past investitsiya samaradorligi, past hayot darajasi va sog'liqni saqlash	Rivojlanmagan dunyo	Afrikaning katta qismi, Janubiy Osiyoning bir qismi
O'zgarishlarni kutayotgan jamiyat Yetakchilar tashqi dunyoni o'zgartirish zarurligini anglashadi, yangi g'oyalar keladi	Rivojlanayotgan dunyo	Janubiy va Markaziy Amerika, O'rta Sharq
Tez rivojlanayotgan jamiyat Og'ir sanoat tezkor rivojlanayotgan industriya tez rivojlanishi	Ijtimoiy-iqtisodiy sharoit ichki turizm o'sishiga qulay. Xorijiy turizm, xorijiy investitsiya xisobiga rivojlanishi mumkin	Meksika, Janubiy Amerikaning bir qismi
Ommaviy iste'mol jamiyati Rivojlangan iqtisodiy potensial; yirik hajmda tovar va xizmatlar ishlab chiqarish; ijtimoiy-madaniy sohada ehtiyojlarning tez o'sishi	Rivojlangan dunyo Asosiy xalqaro turizm markazlari	SHimoliy Amerika, Jarbiy Yevropa, Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya

¹⁷ Rotrov "Iqtisodiy rivojlanish va turizm" M. 1952-yil 172-bet.

Shular bilan bir qatorda, bugungi kunda turistlar oqimi ham bozor iqtisodiyoti sharoitida O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga kelayotganligi, turizmning respublika iqtisodiyotiga yanada integratsiyalanishi mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2.1.2 - jadval

2018- yilda MDH davlatlaridan O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni .¹⁸

Davlatlar	Raqamlarda	Foizlarda
Qozog‘iston Respublikasi	554,0 ming kishi	33,6 %
Tojikiston	478,8 ming kishi	29,1 %
Qirg‘iziston	301,6 ming kishi	18,3 %
Rossiya	102,0 ming kishi	6,2 %
Turkmaniston	101,5 ming kishi	6,2 %
Belorussiya	3,9 ming kishi	0,2 %
Ozarbajjon	3,1 ming kishi	0,2 %


MDH davlatlaridan O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari 1548,6 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, bu jami tashrif buyurganlarning 94,0 % tashkil etadi, uzoq xorijiy davlatlardan esa 98,2 ming kishi (yoki 6,0 %) tashrif buyurgan. 2018 yil dekabrda chet elga ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari soni 2342,3 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda 0,9 marta kam. MDH davlatlariga ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari 2726,8 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, bu jami tashrif

¹⁸ Stat.uz./ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi /2018-yil O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (dekabr oyi uchun)

buyurganlarning 95,2 % tashkil etadi, uzoq xorijiy davlatlarga esa 37,5 ming kishi (yoki 4,8 %) tashrif buyurgan.

O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy safar maqsadlari bu qarindoshlarni yo‘qlash (72,2 %). Keyingi o‘rinlarda sayyohlik maqsadida - 8,6 %, tranzit - 8,2 %, davolanish maqsadida - 1,0 %,

doimiy yashash maqsadida - 0,8 %, xizmat yuzasidan va ishlash maqsadida - 0,8 % dan, o‘qish va tijorat maqsadida - 0,6 % dan va boshqa maqsadlarda – 6,4 %. O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining - 55,8 % erkaklar, - 44,2 % ayollarni tashkil etadi.



2.1.1 -rasm

2018-yilda chet el fuqarolari va O‘zbekiston fuqarolari soni (keldan va ketgan shaxslar bo‘yicha)

2018-yilga nisbatan chet el fuqarolari soni 4,8,1 % ga oshgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi fuqarolar soni esa 1,4% ga kamaygan. Turizm investitsiyasi loyihalarining milliy iqtisodga bo‘lgan ta’sirlari yuqori, hosil qilganlari korxonalar foydaliligi boshqa sektorlarga qaraganda juda kam

qanoatlantiruvchi bo'lgani uchun bu loyihalarning baholanishida alternativ loyihalar asosiy o'rinni egallaydi va munosib ko'rilgan va loyihalarning rag'batlantirish tadbirlaridan kerakli foydalanishlari asos qilib olinadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun jismoniy rejalashtirish ishlarining bir butunlik ichida yuritilishida hisoblanmaydigan foydalar bo'lmoqdadir.

2018 yil natijalariga ko'ra, 17 davlat uchun vizasiz kirish rejimi ochildi, 76 mamlakat uchun viza rejimi soddalashtirildi, 10 mingdan ziyod vizalar berildi, litsenziyalash 10 kunga qisqartildi. O'zbekistonda 45 mamlakat uchun viza olish va 76 mamlakat uchun vizalar soddalashtirildi. Mamlakat prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan turizmni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan farmon kuchga kirdi. Shunga ko'ra, bundan buyon Yevropa Ittifoqi bilan bir qatorda 45 mamlakat fuqarosiga 30 kun davomida vizasiz kirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Farmon bilan bundan tashqari 76 mamlakat fuqarosi elektron vizalar asosida 2 kun ichida O'zbekiston vizasini olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Yangi loyiha kuchga kirgandan so'ng, O'zbekiston vizani ozod qilgan mamlakat soni 64 taga ko'tarildi. soddalashtirilgan viza rejimi amalga oshirilgan mamlakat soni esa 130 yuksaldi.

]Shu bilan birga O'zbekiston hukumati O'zbekistonga kelish istagida bo'lgan xorijliklarga qulaylik yaratish maqsadida elektron kirish vizalarini (E-Visa) berish tizimini joriy qilish masalasini ko'rib chiqmoqda. Elektron viza kirish vizasini olish uchun elchixonada navbatda turishdan xalos qiluvchi nou-xaudir. Uni onlayn olish mumkin. Barcha hujjatlar va anketalar internet orqali topshiriladi. Bu vizani olish konsul bilan suhbatlashish yoki qog'ozbozlik bilan bog'liq boshqa jarayonlarni amalga oshirishni ko'zda tutmaydi. Vizani olish tartibi quyidagicha: tegishli hujjatlar elchixonaga topshirilgandan keyin, ular mamlakat migratsiya xizmati orqali o'tadi va tekshiriladi hamda viza berish bo'yicha ijobiy yoki salbiy qaror bilan qaytariladi. Bu vizalarning yana bir afzal tomoni shundaki, ularni rasmiylashtirish jarayoni tez kechadi. Ushbu yaratilayotgan barcha imkoniyatlar O'zbekistonda chet ellik turistlar dinamikasini o'sishiga o'z hissasini qo'shadi.

2.1.3. - jadval

O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el va ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari dinamikasi.¹⁹

Ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari		
Davlatlar	2018-yil yanvar mart	2019-yil yanvar mart
MDH	2726.8	2779.4
Uzoq xorijiy davlatlar	137.4	124.6
Kelgan chet el fuqarolari		
Davlatlar	2018-yil yanvar mart	2019-yil yanvar mart
MDH	1548.6	1548.6
Uzoq xorijiy davlatlar	98. 2	48.3

O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari sonining tahlilidan ko'rinadiki, 2019 yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 535,2 ming nafar ko'p chet el fuqarolari tashrif buyurgan (tashrif buyurganlar soni 1,5 martaga ortgan).

Ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni, 2018 yil yanvar-mart oylarida 2904,0 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2019 yil yanvar-mart oylarida 2864,2 ming nafarni tashkil etdi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga kelayotganligi, turizmning respublika iqtisodiyotiga yanada integratsiyalanishi mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon iqtisodiyoti tajribasidan ma'lumki, turizm sohasi mamlakat xazinasini uchun zarur bo'lgan valyuta tushumini ta'minlash, yangi ish joylarini vujudga keltirish va shu bilan birgalikda, aholining turmush darajasini oshirish uchun xizmat qiladi. Respublikamiz xalqaro turizm sohasidagi imkoniyatlarining kattaligi bilan qo'shni mamlakatlardan tubdan farq qiladi. O'zbekiston nodir tarixiy arxitektura yodgorliklariga, shirin-shakar mevalar, xilma-xil taomlar,

¹⁹ Stat.uz/2018-yil dekabr oyi uchun O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari dinamikasi

ajoyib milliy anʻana, urfodatga ega boʻlgan mehmondoʻst xalqqa ega. Xalqaro turizmni rivojlantirishda Oʻzbekistonda mavjud boʻlgan siyosiy barqarorlik ham muhim oʻrin tutadi.

Respublikamizga tashrif buyurayotgan turistlarning soni yildan-yilga ortib bormoqda. Jahon tajribasidan maʼlumki, xalqaro turizm bozorini rivojlantirish va uning faoliyatni yuqori darajaga olib chiqish oʻziga xos murakkab jarayondir. Xalqaro turizmda nazoratsizlik, oʻzbilarmon chilik bu jarayon rivojiga ziyon etkazadi. Xalqaro turizmdan katta foyda olayotgan Evropa mamlakatlarida turistik faoliyatning ayrim yoʻnalishlari davlat tomonidan toʻgʻridan-toʻgʻri yoki bilvosita siyosiy-rasmiy boshqarilib, aniq maqsadga yoʻnaltirib turiladi. Toʻgʻridan-toʻgʻri boshqarish shaklida zarurat tugʻilib qolganda turistik xizmatlar uchun belgilangan narxlar tartibga solinadi.

Turizm infrastrukturasi ajralmas qismi boʻlgan mehmonxonalaridagi xizmat bahosi bozor talabining yuqori yoki pastligiga qarab farqlanishi mumkin. Bu tafovutning shartlari va meʼyorlari narx-navo siyosati orqali aniqlanadi hamda ular daromad olishning asosiy omillari hisoblanadi. Turizm sohasida etakchilik qilayotgan davlatlardan biri boʻlgan Ispaniya mehmonxonalarida “sifat-baho” shioriga qattiq amal qilinadi. Shuning uchun turizm xizmatining asosiy mezon boʻlgan narx siyosati Oʻzbekistonda ham ayrim turistik tashkilotlari orqali emas, balki davlat tomonidan doimiy ravishda nazorat qilib borilishi lozim.

Respublikadagi mavjud mehmonxonalaridagi narxlar baʼzi bir sabablarga koʻra jahondagi oʻrtacha narxlardan yuqori boʻlib, turistlarning mehmonxonalariga boʻlgan talabidan yuqoridir. Har bir turist shinam, har tomonlama yaxshi jihozlangan joyni bir kechaga 50-60 AQSh dollariga sotib olishni xohlaydi. Bizdagi mehmonxonalarda esa bir kecha tunash 200-350 AQSh dollariga toʻgʻri kelmoqda.²⁰ Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun respublikamizda soʻnggi besh yil ichida mehmonxonalarining zamonaviy tiplari keng koʻlamda qurila

²⁰ Alieva M. Mehmonxonalar menejmenti. T.: TDIU, 2011. – 65 bet..

boshlandi. Bular ichida “Interkontinental”, “Sheraton», “Le-Meridian”, “Grant Mir”, “Dedeman”, “Toshkent Palas”, “Otel O‘zbekiston”, “Afrosiyob”, “Buxoro” mehmonxonalarini misol qilishimiz mumkin. Bu mehmonxonalar 4 va 5 yulduzli bo‘lib, xalqaro darajaga to‘liq javob beradi. Endigi vazifa esa ulardagi narxlarni qayta ko‘rib chiqishdir.

O‘zbekistonda turizm bozorini rivojlantirishda quyidagi omillarga alohida e‘tiborni karatish lozim deb bilamiz:

- xalqaro turizmda kichik va o‘rta tadbirqorlikni faoliyatidan keng foydalanish;

- O‘zbekistoning turistik imkoniyatlari bilan chet ellik investorlarni tanishtirish;

- ko‘plab sayohatlarga chiqadigan Evropa mamalatlarda bo‘ladigan turistik yarmarkalarda surunkali ishtirok etishni ta‘minlash;

- ichki turistik bozorda o‘zaro raqobatni yanada kuchaytirish;

- zamonaviy turistik komplekslarni bunyod etishda chet el sarmoyasini jalb etishga erishish;

- jahon bozorida talab katta bo‘lgan xalqaro turistik yo‘nalishlarni yo‘lga qo‘yishda va ishlab chiqishda qatnashish;

- milliy urf odatlar va tarixiy arxitektura yodgorliklarini asl ko‘rinishda saqlab qolishga erishish;

- milliy turistik mahsulotlarni yagona markaga birlashtirish;

- turizm sohasi uchun malakali mutaxasislarni tayyorlashni takomillashtirish;

- turizm ilmiy tekshirish institutlarini tashkil qilish va boshqalar.

O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda cheksiz imkoniyatlar borligini ta‘kidlab o‘tgan edik. Bu imkoniyatlar to‘g‘ri yo‘naltirgan holdagina maqsadga erishish mumkin bo‘ladi. Xalqaro turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan omillardan biri milliy turistik mahsulotni xalqaro bozorda raqobatli bo‘lishi va sotuvini yaxshilashni ta‘minlashdir.

2.2. Turizm sohasining investitsion salohiyatini oshirish samaradorligi.

Turizmga sarflanadigan investitsiyalar haqida va umuman investitsiyalar haqida gapirish uchun avvalo, xorijiy investitsiyalarning nima ekanligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish kerak. O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 5 mayda qabul qilingan "Xorijiy investitsiyalar va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida quyidagilar xorijiy investor bo'lishi mumkin:

- chet el davlatlari;
- xorijiy huquqiy shaxslar;
- xalqaro tashkilotlar;
- chet el fuqarolari, birlashmalari;
- O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashovchi fuqarolari;


Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda investitsiya siyosatining ahamiyati juda muhim hisoblanadi. Bu gapimizni dalili sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirsak, maqsadga muvofiq bo'lardi: —" Mamlakatimizda investitsiya siyosatini kuchaytirish masalasiga biz alohida ustuvor ahamiyat qaratamiz. Xorijiy sarmoyalarni va ilg'or texnologiyalarni iqtisodiyotga jalb etish uchun chet ellardagi diplomatik vakolatxonalarimiz jiddiy ish olib borishi lozim. Buning uchun Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini kuchaytirish, chet mamlakatlardagi elchilarimiz nafaqat siyosiy, ayni vaqtda yurtimizga investitsiyalarni jalb qilish masalalari bilan ham faol shug'ullanishlari darkor. Ularning bu boradagi faoliyatini nazorat qilish uchun Oliy Majlis Senatining Tashqi siyosat masalalari qo'mitasining faoliyat sohasi va vakolatlarini kengaytirish zarur, deb hisoblayman"²¹

Turizm talabining investitsiyaga ta'siri, har qancha investitsiya loyihalarining tayyorlanish bosqichida bozor vazifalarining ichkarisida o'rganilgan bo'lsa ham ko'pincha ratsional bo'lmagan omillarga bog'liq bo'lgani uchun o'lchanish va baholantirilishi ham qiyindir. Ichki va tashqi turizm talabi

²¹ Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.: —O'zbekistonl NMIU, 2017 y. -5 bet.

faqat daromad kabi iqtisodiy omillarning rol o'ynagani bir soha bo'lmagan moda, ko'rgazma, iste'mol havosi, snobizm, ijtimoiy-psixologik omillar kabi bir nechta omil ham turizm talabining ta'sirchisidir. Turizm bozorini yaxshi o'rganish, xavas anketalarini qo'llash, davomli bozor nazorati qilish shartdir. Faqat, turizm sektoridagi loyihalarning hech bir vaqt har qaysi bir sektor loyihasi kabi oddiy bir shaklda buyurilib qo'lga olinmasligini bilish kerakdir. Shu sababli ham sektorlar orasi alternativ investitsiya loyihasi muhokamasini qilish juda qiyindir. Ichki va tashqi turizm sohasi turistlarni ommaviy jalb qilish va tarmoqni samarali rivojlantirish bo'yicha vazifalarni hal qilish ko'pincha unga yo'naltirilayotgan investitsiyalarni rag'batlantirishga bog'liq.

Bugungi kunda mamlakatimiz hududida turizm sohasining investitsion salohiyatini oshirish samaradorligiga erishish uchun xizmatlar sohasining rivojlanishiga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasining rivojlanishi moddiy ishlab chiqarish o'sishidan ilgarilab ketmoqda. 2017 yil yanvar-dekabr oylarida yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida xizmatlarning ulushi 47,3 foizni tashkil etdi. 2017 yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 116795,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 8,9 foizga oshdi.



2.2.1-rasm

YaIM tarkibida xizmatlarning ulushi

2.2.1-jadval

**2017 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi²²**

Hududlar	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish surati, % da
O'zbekiston Respublikasi	116795,7	108,9
Qoraqalpog'iston	3535,0	106,0
Andijon	6640,9	105,6
Buxoro	5364,1	103,6
Jizzax	2494,1	105,2
Qashqadaryo	5841,0	104,2
Navoiy	3034,4	107,0
Namangan	5072,8	105,0
Samarqand	8237,6	104,5
Surxondaryo	4429,2	104,5
Sirdaryo	1581,0	106,0
Toshkent	9277,2	104,3
Farg'ona	7562,9	104,3
Xorazm	3552,1	105,3
Toshkent shahri	37529,4	114,6

²² Davlat statistika qo'mitasi Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Xizmatlar hajmining oshishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanadi, jumladan: bozorda yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi, masalan, kredit kartalari orqali to'lovlar, Internet-savdo, yangi savdo markazlari, ovqatlanish korxonalari, mehmonxonalarning tashkil etilishi, ta'lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanlovning kengayishi shular jumlasidandir.

Hududlar ichida eng yuqori o'sish sur'atlari Toshkent shahrida (114,6%), Navoiy (107,0%), Sirdaryo (106,0%), Andijon (105,6%), Xorazm (105,3%), Jizzax (105,2%), Namangan (105,0%) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (106,0%) kuzatildi.

Hudud bu mamlakat iqtisodiyotining alohida hududiy qismi hisoblanadi. Har bir hudud o'zining ixtisoslashuvi, iqtisodiyotni kompleks rivojlantirish va uni boshqarish imkoniyati bilan boshqasidan farq qiladi.

Xizmatlar sohasini rivojlanishida eng yuqori ulushni Toshkent shahri (32,1 foiz), Toshkent (7,9 foiz), Samarqand (7,1 foiz), Farg'ona (6,5 foiz), Andijon (5,7 foiz) foiz), Qashqadaryo (5,0 foiz) viloyatlari egallaydi.

2.2.2 - jadval

2017 yil yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari tarkibi²³

Transport xizmatlari jami	100%
Avtomobil transport xizmatlari	56,7%
Quvur orqali yuk tashish xizmati	15,2%
Temir yo'l transporti xizmati	11,8%
Havo transporti xizmati	8,6%
Boshqa transport xizmatlari	77%

Turizm sohasining investitsion salohiyatini oshirishda transport xizmatlarning barcha turlarini keng rivijlantirish orqali katta samaradorlikka

²³ Davlat statistika qo'mitasi Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

erishish mumkin. Transport xizmatlari, xususan, havo transport xizmatlari, temir yo'l transporti xizmatlari, quvurlar orqali yuk tashish transporti xizmatlari, avtomobil transporti xizmatlari va boshqa transport xizmatlarini o'z ichida qamrab oladi.

Transport xizmatlarining asosiy qismi avtomobil transportida yuk va yo'lovchi tashish xizmatlariga to'g'ri kelmoqda. Bu transportning harakatchanligi hamda havo va temir yo'l transporti bilan solishtirganda xizmatlar narxining nisbatan arzonligi bilan izohlanadi.

2.3. Turizmni investitsiyalash va bank kreditlaridan foydalanish.

Jahon iqtisodiyoti tarixidan shu narsa ma'lumki, XX asrning 60 yillaridanoq xorijiy investitsiyalar har qanday milliy daromad hajmini oshirishni maqsad qilgan rivojlanayotgan davlat iqtisodiyoti uchun birlamchi ahamiyat kasb eta boshladi. O'tish davri iqtisodiyotida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash hamda texnik va texnologik qayta qurollantirishga qaratilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda xorijiy investitsiyalarning roli investitsiyalashning boshqa turlariga qaraganda bir muncha samaraliroq ekanligi aniq bo'lib qoldi.

Ichki va tashqi turizm sohasi turistlarni ommaviy jalb qilish va tarmoqni samarali rivojlantirish bo'yicha vazifalarni hal qilish ko'pincha unga yo'naltirilayotgan investitsiyalarni rag'batlantirishga bog'liq.

Turizmدا investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari turizm investitsiya loyihalarida bajarila olishning tekshirilishi uchun, oldin investitsiya loyihasining ruyobga chiqarilishi tahlil qilinadi. Undan keyin, rivojlantirish ishlarining yuzaga chiqargani natijalar, ma'lum kriteriyalar jihatidan mezonlashtirish tahlili tobe tutiladi. Shunday qilib, investitsiya loyihalarining moliyalashtirilishi tugatilgan loyihalarning tadbiq qilish sohasiga qo'yilish yoki qo'yilmasligi qaror qilinadi, investitsiya alternativlaridan qaysisining yoki qaysilarining tanlanishida makro va mikro iqtisodiy yo'nalishidan manfaatli bo'lishi aniqlangan bo'ladi.

Loyihani moliyalashtirish operatsiyasining ob'ektiv bir ko'z bilan va

ma'lum mezonlarga asoslanib yuritilishi, beriladigan qarorning to'g'riligi va manba ta'minlanishida eng samarali sohalarning belgilanishi majburiydir. Shunday ekan loyihani tayyorlagan kishi yoki gurux mavzuga odatlanganligi sababida qilingan xatolarni aynan qabul qilish va yangilash orzusida bo'ladi. Shu sababli, investitsiya loyihalarini moliyalashtiradigan kishi yoki gurux bilan tayyorlangan kishi yoki guruhning farqli bo'lishi mavzusi ustida talabchanlik bilan yoritilishi kerak, har qancha turizm baza yaratish, valyuta kirimini yaratish kabi funktsiyalarga sohib bo'lsa ham bu hususiyatlar turizm sohasida qilinadigan har qanday investitsiyaning munosib bo'lish yoki bo'lmasligini qaror bera olish uchun yetarli soliqlar emasdir. Shu sababli turizm investitsiya loyihalarining hosil qiladigan foydalar bilan keltiradigan tannarxlarning qiyoslanish yo'liga ketilishi kerak. Xususan, industriya loyihalarining moliyalashtirilishida qo'llanilgan uslublar, turizm investitsiyasi loyihalarini moliyalashtirish uchun ham joriy qilinadi. Turizm investitsiya loyihalarining moliyalashtirilishi uchun oldin bozor izlanishlari aniqlangan bo'lishi, to'liq nisbatlari bilan loyihada qo'llaniladigan narxlarning sog'lom va ishonchli soliqdarga tayanib tayanmasligi nazorat qilinishi kerak.²⁴

Turizm investitsiya loyihalari, ma'lum bir tovar yoki xizmat ishlab chiqarilishga ajratilishi, ko'zlangan manbalarning iqtisodiy va moliyaviy tomondan avantajli bir ta'minlanish bo'lish bo'lmasligini ko'rsatishi yuzasidan ro'yobga chiqarilmoqdadir. Joriy yilning 8 aprel kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yilning I choragida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarning amalga oshirilishini tahlil qilish bo'yicha videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda davlat rahbari tomonidan investitsiyalarning o'z vaqtida o'zlashtirilishini ta'minlash uchun yangi nazorat tizimi joriy etildi. Maqsad - investorlarni qiynayotgan muammolarga yechim topish va ularni samarali hal qilishda qo'mita vakolatlari doirasida yordam berish, shuningdek, ushbu loyihalarning amalga oshirilishini birgalikda ta'minlash.

²⁴ Turizm:nazariya va amaliyot-T:"barkamol fayz media nashriyoti"2018y

Turizmga doir bunday investitsiyalarni ishga tushurilishi davlatning har sohada rivojlanishiga imkon yaratadi. Bejizga yuqorida takidlab o'tilgan videoselektor ham "Turizmga investitsiya-kelajakka sarmoya" nomi ostida bo'lib o'tgani fikrimizni tasdiqlaydi. Butunjahon turizm tashkilotining ma'lumotlari bo'yicha, dunyoda ishlab chiqarish va servis aylanmasining 10 foizi turizmga to'g'ri kelmoqda. Ya'ni turistik xizmatlarning eksporti 8 foizga o'sib, jahon bo'yicha umumiy xizmatlar savdosining 30-35 foizini tashkil qilmoqda.²⁵

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan investitsion siyosatning maqsadi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining manfaatdorligini oshirish, moliyalashtirish manbalari tuzilmasini takomillashtirish va xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar tashkil qilish asosida mamlakatni taraqqiy ettirishdan iborat. Samarali investitsion siyosat, avvalo, investitsiya jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Investitsion siyosat milliy va xorijiy investorlarning xo'jalik faoliyatini yuritishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishi kerak. Iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar yetakchi ro'l o'ynaydi, chunki investitsiya orqali korxonalarining kapital jamg'arilishiga, natijada mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy o'sishga erishiladi. Ayniqsa xorijiy investitsiyalar respublika mintaqalari iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, ularning iqtisodiy o'sishida, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirishda, bozor islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim o'rin tutadi.

2016 yil 23 dekabrda qabul qilingan 2017 yilgi —Investitsiya dasturiga nazar tashlasak, respublikamiz iqtisodiyotiga kiritiladigan investitsiyalar hajmi 2017- yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga 61403,4 mlrd so'm miqdorida investitsiyalar jalb qilinishi va o'sish sur'ati 2016 yilga nisbatan 109,6 foizni tashkil qilishi rejalashtirilgan edi. Jami investitsiyalarning 46,9 foizi korxonalar va aholi mablag'lari hisobiga, 26,0 foizi chet el investitsiya va kreditlari hisobiga, 4,0

²⁵ <https://kun.uz/uz/news/2019>.

foizi respublika budjeti mablagʻlari hisobiga, 5,7 foizi budjetdan tashqari fondlar hisobiga, 12,2 foizini esa bank kreditlari hisobiga toʻgʻri kelishi keldi.²⁶

2.3.1 -jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari

boʻyicha tarkibi.²⁷

	mlrd.soʻm	oʻsish surati, %da	Jamiga nisbatan %da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	29885,1	129,9	100,0
Republika byudjeti	2093,3	3,1	7,0
Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi	2703,9	2	9,0
OʻzR kafolati ostida xorijiy Kreditlar	7556,4	3,6	25,3
Korhona mablagʻlari	6214,3	93,3	20,8
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablagʻlar	4564,6	82,7	15,3
Toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy Investitsiyalar	2431,4	78,2	8,1
Boshqa xorijiy investitsiya va Kreditlar	555,9	195,5	1,9

²⁶ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 23 dekabrdaqi №PQ-2697-sonli Oʻzbekiston Respublikasi 2017 yilgi Investitsiya dasturi toʻgʻrisidaʻgi Qarori asosida tayyorlandi.

²⁷ Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida tuzilgan.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o`shish sur`atlari moliyalastirish mabalari bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich O`zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan o`zlashtirilgan investitsiyalarda kuzatildi – o`tgan 2018-yilning mos davriga nisbatan 3,6 marta o`shish butun O`zbekiston bo`ylab yirik investitsiya loyihalarining jadal olib borilayotgani bilan bog`liq.

Biror tadbirkorlik loyihasini amalga oshirishga xarajatlarning umumiy summasi quyidagi xarajatlarni o`z ichiga oladi: asosiy va aylanma kapital (investitsiyalar) ni shakllantirishga ketadigan sarflar, ishlab chiqarish sarflari va mahsulot o`tkazish sarflari.

Asosiy kapital – turistik korxonalar qurish, qayta ta`mirlash va kengaytirishga, shuningdek unga zarur jihozlar va infrastuktura bilan jihozlashga ketadigan mablag`lardir.

2018-yil dekabr oyiga asosiy kapitalga investitsiyalar Joriy davrda 29885,1 mlrd. so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilib, ularning 68,7%i yoki 20522,4 mlrd. so`m jalb etilgan mablag`lar hisobidan moliyalashtirilgan bo`lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o`z mablag`lari hisobidan 31,3 %i yoki 9362,7 mlrd. so`m moliyalashtirildi. Joriy davrda markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi o`tgan yilning mos davridagi ulushiga nisbatan 23,9 % punktga ko`payib, 41,8% ni yoki 12491,8 mlrd. so`mni tashkil etdi.

Turizmni rivojlantirish bo`yicha jahon va mamlakatimiz amaliyoti shuni ko`rsatmoqdaki, iqtisodiyotning shu sohasiga qilinadigan investitsiyalarni rag`batlantirishning asosiy turlaridan biri davlatning asoslashgan soliq siyosati, shuningdek, davlatning yuqori mahsuldor turistik infrastruktura obektlarini yaratishni moliyaviy ta`minlashdagi faol ishtiroki hisoblanadi. Ichki va tashqi turizm sohasi turistlarni ommaviy jalb qilish va tarmoqni samarali rivojlantirish bo`yicha vazifalarni hal qilish ko`pincha unga yo`naltirilayotgan investitsiyalarni rag`batlantirishga bog`liq.

2.3.2-jadval.

Asosiy kapitalga investitsiyalar.²⁸

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari:				
Respublika Byudjeti	O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi	Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg`armasi	Tiklanish va araqqiyot jamg`armasi
2093,3 mlrd. so`m	7556,4 mlrd. so`m	126,1 mlrd. so`m	12,1 mlrd. so`m	2703,9 mlrd. so`m

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar²⁹

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari				
Aholi Mablag`lari	Tijorat Banklari kredit va boshqa qarz mablag`lari	Tog`ridan- to`g`ri xorijiy investitsiyalar	Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	Korxonalar mablag`lari
3627,1 mlrd. so`m	4564,6 mlrd. so`m	2431,4 mlrd. so`m	555,9 mlrd. so`m	6214,3 mlrd. so`m

²⁸ O`zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo`mitasi Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi / 2018-yil dekabr oyi uchun /press-revizlar//asosiy kapitalga investitsiyalar.

²⁹ O`zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo`mitasi Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi / 2018-yil dekabr oyi uchun /press-revizlar// asosiy kapitalga investitsiyalar.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 23,9 % ga kamayib, 58,2 % ni yoki 17393,3 mlrd. so`mni tashkil etdi.

Turizm sohasida dastlabki investitsiyalar va kapital xarajatlarni ta`minlash firma mablag`lari, uzoq muddatli zayomlari va kreditlari xisobidan amalga oshirilishi mumkin. Aylanma kapital tijorat banklari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan beriladigan qisqa yoki o`rta muddatli mablag`lar hisobidan shakllanadi.

Shu bilan birga turistik korxonalar yoki ular birlashmalarining kapitali faqat dastlabki sarflarnigina emas, balki aylanma mablag`larga bo`lgan ehtiyojlarining bir qismini ham qoplash uchun ishlatilishi mumkin (yuqori dividendlar kutiladigan sharoitlarda). Boshqa tomondan, agar nisbatan arzon bo`lgan qisqa muddatli yoki uzoq muddatli kredit bor bo`lsa, loyihalardagi tadbirlarni ana shunday zayomlar hisobidan mablag` bilan ta`minlagan ma`qulroq.

Barcha holatlarda uzoq muddatli qarzdorlik va aktsionerlik kapitalining salmog`i qanchalik yuqori bo`lsa, alohida aktsiyaga daromad shunchalik kam bo`ladi, chunki dividendlar aktsiyalarning katta miqdorlari o`rtasida taqsimlanadi. Boshqa tomonidan, zayom mablag`larining ulushi qanchalik yuqori bo`lsa, to`lanadigan kredit foizlarining summasi shuncha yuqori bo`ladi. Shuning uchun moliyaviy rejani ishlab chiqishda mablag` bilan ta`minlashning muqobil shakllari va sxemalari sinchiklab baholanadi. Moliyaviy reja zarur mablahlarni va rejalashtirilayotgan foydani olish talablariga javob berishi kerak.

. tadbirkorlik loyixasini amalga oshirish uchun quyidagilar jalb qilinishi mumkin:

- tabiiy zonalar va umumdavlat axamiyatidagi infrastuktura ob`ektlarini rejalashtirish, tarixiy-madaniy yodgorliklar va boshqa muhim diqqatga sazovarliklarni yangilashga davlat ajratmalari;

- moliyaviy ta`minlashning boshqa manbalari – lizing (qaytadigan mablag`lar), mahalliy byudjet, byudjetdan tashqari fondlar va boshqalar. Ichki va tashqi turizm sohasi turistlarni ommaviy jalb qilish va tarmoqni samarali

rivojlantirish bo'yicha vazifalarni hal qilish ko'pincha unga yo'naltirilayotgan investitsiyalarni rag'batlantirishga bog'liq. Turizmni rivojlantirish bo'yicha jahon va mamlakatimiz amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyotning shu sohasiga qilinadigan investitsiyalarni rag'batlantirishning asosiy turlaridan biri davlatning asoslashgan soliq siyosati, shuningdek, davlatning yuqori mahsuldor turistik infrastruktura obektlarini yaratishni moliyaviy ta'minlashdagi faol ishtiroki hisoblanadi. Soliq tizimning samaradarligi ko'p jihatdan soliq bazasini hisoblash, soliq stavkalarini hisoblash bo'yicha amal qilayotgan metodikasi va asosan turizmni har tomonlama rivojlantirishni rag'batlantirishga yo'naltirayotgan soliq imtiyozlari hisoblanadi. Soliq mexanizmini qo'llar ekan, davlat turistik tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni moliyaviy taminlash uchun qulay sharoit yaratishga ko'maklashadi. Bundan tashqari, turistik korxonalarining foydasiga soliq solish ham turli soliq imtiyozlari tizimi bilan bog'liq bo'lishi kerak.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish va zamonaviylashtirishni mablag' bilan taminlashga beriladigan imtiyozlarning asosiy turlari quyidagilardir:

- investitsiyalarni soliqqa tortish borasidagi imtiyozlar firmalarni qurilish, qayta qurish va jihozlar sotib olishdagi korporativ soliqdan ozod qilish:

- bojxona imtiyozlari - imtiyozli moliyaviy taminlash sertifikatlariga mos keladigan holda mamlakatga olib kirilayotgan mashinalar va asbob-uskunalar, jihozlarni soliq to'lashdan ozod qilish, shuningdek turistlarning kirishi va chiqishini rasmiylashtirishda pasaytirilgan stavkalar;

- valyuta imtiyozlari - litsenzion faoliyatiga ega kompaniyalar va firmalarni yillik valyuta solig'idan ozod qilish:

- ob'ektlarni davlat tomonidan imtiyozli tarzda mablag' bilan taminlash, shuningdek malum vaqt davomida ulardan imtiyozli foydalanish

- boshqa imtiyozlar – zarur infrastrukturani rivojlantirishga, 49 yil davomida yerga ijara haqini to'lashga, suv taminoti to'lovlari va elektr energiyasi xarajatlariga va boshqalar;

Bunday soliq siyosati turizmning rivojlanishiga, xorijiy va ichki investitsiyalarning o'sishiga, turistik sanoati kengaytirishga va takomillashtirishga

xizmat qiladi. Soʻnggi yillarda investitsiyalar tarkibi, xususan, byudjetdan ajratiladigan investitsiyalar va bank kreditlari ahamiyati keskin oʻzgardi.

2.3.3-jadval

2018 Xorijiy investitsiya va kreditlar mlrd.soʻm³⁰

	Jami invesves titsiya va kreditlar	Inves titsiya	Kredit	Toʻgʻri dan- toʻgʻri inves titsiya	Boshqa investit- siya va kredit lar	Inves titsiya	Kre dit
Oʻzbekiston Respublikasi	10543,7	2736,6	7807,1	2431,4	8112,3	305,2	7807,1
Qoraqal-n R.	429,6	73,5	356,1	69,7	359,9	2,8	356,1
Andijon	415,5	211,2	204,3	210,7	204,8	0,5	204,3
Buxoro	744,2	598,7	145,5	332,5	411,7	266,2	145,5
Jizzax	143,7	81,9	61,8	79,8	63,9	2,1	61,8
Qashqadaryo	4084,2	351,6	3 732,6	346,8	3737,4	4,8	3732,6
Navoiy	2052,6	39,8	2 012,8	39,8	2012,8	-	2012,8
Namangan	968,9	126,0	842,9	119,6	849,3	6,4	842,9
Samarqand	90,7	19,5	71,2	13,3	77,4	6,2	71,2
Surxondaryo	177,4	80,9	96,5	78,4	99,0	2,5	96,5
Sirdaryo	57,1	5,3	51,8	5,3	51,8	-	51,8
Toshkent	498,5	439,4	59,1	432,7	65,8	6,7	59,1
Fargʻona	248,6	248,6	33,5	212,1	36,5	3,0	33,5
Xorazm	53,9	53,9	37,2	15,3	38,6	1,4	37,2
Toshkent sh	53,9	578,8	101,8	475,4	103,4	1,6	101,8

³⁰ Stat.uz./ Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi /2018-yil Oʻzbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati

Joriy davrda 10543,7 mlrd.so`m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 35,3 %i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o`zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 2736,6 mlrd. so`mni tashkil etdi va qolgan 7807,1 mlrd.so`m xorijiy kreditlar hisobiga to`g`ri keldi.

To`g`ridan - to`g`ri xorijiy investitsiyalar hisobidan joriy davrda 2431,4 mlrd so`m o`zlashtirilgan bo`lsa, 8112,3 mlrd. so`m boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o`zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning o`tgan yilning mos davriga nisbatan o`shir sur`ati 191,2 %ni tashkil etdi.

O`shir sur`atlarini hududlar kesimida ko`radigan bo`lsak, eng yuqori ko`rsatkich Jizzax viloyatida qayd etildi – 20,7 marttaga ko`payish, eng past o`shir surati Buxoro viloyatida kuzatildi 37,6 %.

Ta`kidlash joizki, chuqur o`ylangan investitsiya va kreditlardan foydalanish siyosati boshqa mamlakatlardan turistlarni O`zbekistonga ommaviy jalb qilish, ichki turizmni rivojlantirish va uning samaradarligini oshirish bo`yicha vazifalarni xal qilishning muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ayni paytda investitsiyalar moliyaviy manbalari tarkibiy tuzilishida ham sezilarli o`zgarishlar ro`y berdi. O`zbekistonda investitsiya loyihalarni tuzish va moliyalashtirish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish bo`yicha izchil chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Ularning negizida iqtisodiy barqarorlik va inflyatsiya jarayonlarini tartibga solish va milliy valyuta-so`mning to`lov qobiliyatini oshirishga yo`naltirilgan makroiqtisodiy siyosat omil yotadi. Investitsiyalar va ishlab chiqarish chiqimlarning asosiy elementlari moliyaviy rejaga kiritiladi. Bu investitsiyalar va xarajatlarning umumiy summasini hisoblab chiqish, rejalashtirilgan tadbirlarning moliyaviy va iqtisodiy rentabelligini aniqlashga imkon beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bozor munosabatiga asoslangan iqtisodiyotda cheklangan resurslardan unumli foydalanish, chet el kapitali oqimini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarish orqali turizm sohasini yuksaltirish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Turistik mahsulot ishlab chiqarishning pirovard natijasiga kam harajatlar, resurslar sarflash orqali erishish iqtisodiy faoliyatning bosh maqsadi hisoblanadi. Bozor munosabatlari sharoitida mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish masalalari bilan uzviy bog'liqdir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilishning asosiy yo'nalishlari keng rivojlanmagan bo'lib, mamlakat iqtisodiyotida umumiy ko'rsatkichlarga ega emas. Respublika bo'yicha YaIM ko'rsatkichlarida faqatgina asosiy kapital investitsiyalariga urg'u berilgan bo'lib, statistik ko'rsatkichlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning ob'ektiv shart - sharoitlarini yaratish iqtisodiyotni investitsiyalashni, asosiy fondlarni yangilashni hamda zamonaviy va maqsadli loyihalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishi asosida quyidagi xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Investitsiya bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aktsiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir. Bu iqtisodiy ta'rif investitsiyaning bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos kelishini to'laligicha tasdiqlaydi. Jumladan, unda, birinchidan, investitsiyaning o'ziga va investitsiya faoliyatining ob'ektlarini keng ta'riflaydi. Ikkinchidan, investitsiyaning bevosita iqtisodiy va ijtimoiy samara olishga muqarrar bog'liqligi ta'kidlaydi. Demak, investitsiyaga bozor

munosabatlaridan kelib chiqib berilgan ta'rifning o'zidayoq investitsiya jarayonining hajmi, asosiy bosqichlari, ya'ni jamg'armalar (resurslar), qo'yilma mablag'lar (sarf-xarajatlar), samara (daromad, foyda) aniq va ravshan ko'rsatadi.

2. O'zbekistonda turizm bozorini rivojlantirishda quyidagi omillarga alohida e'tiborni karatish lozim:

- xalqaro turizmدا kichik va o'rta tadbiquorlikni faoliyatidan keng foydalanish;

- O'zbekistonning turistik imkoniyatlari bilan chet ellik investorlarni tanishtirish;

- ko'plab sayohatlarga chiqadigan Evropa mamalakatlarida bo'ladigan turistik yarmarkalarda surunkali ishtirok etishni ta'minlash;

- ichki turistik bozorda o'zaro raqobatni yanada kuchaytirish; zamonaviy turistik komplekslarni bunyod etishda chet el sarmoyasini jalb etishga erishish;

- jahon bozorida talab katta bo'lgan xalqaro turistik yo'nalishlarni yo'lga qo'yishda va ishlab chiqishda qatnashish;

- milliy urf odatlar va tarixiy arxitektura yodgorliklarini asl ko'rinishda saqlab qolishga erishish;

- milliy turistik mahsulotlarni yagona markaga birlashtirish;

- turizm sohasi uchun malakali mutaxasislarni tayyorlashni takomillashtirish;

- turizm ilmiy tekshirish institutlarini tashkil qilish va boshqalar.

3. O'zbekiston Respublikasida quyidagilar xorijiy investor bo'lishi mumkin:

- chet el davlatlari;

- xorijiy huquqiy shaxslar;

- xalqaro tashkilotlar;

- chet el fuqarolari. birlashmalari;

- O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashovchi fuqarolari.

Turistik faoliyatini investitsiyalash jarayonida quydagilarni amalga oshirish zarur:

- milliy, mintaqaviy, mahalliy va firma dasturlari va rejalarida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishga investitsiyalarni yo'naltirish;

- xorijiy valyutadagi rejalarini amalga oshirishga ketadigan xarajatlarni iloji boricha kamaytirishni nazarda tutish;

- ichki, hamkorlikdagi va xorijiy investitsiyalarning manbalarini topish;

- ichki va tashqi turizmni rivojlantirish dasturlari va rejalarini bajarishda huquqiy, soliq va mamuriy tuzilmalar tomonidan ko'rsatiladigan qo'llabquvvatlardan maksimal foydalanish;

- eng qisqa muddatlarda eng katta daromad olishga imkon beradigan istiqbolli loyihalarga investitsiyalar qo'yish;

- tadbirkorlik loyihalarning dasturlari, rejaları va tadbirlari bajarilishning muddatlari va sifatini nazorat qilish va boshqalar.

4. Investitsion siyosatning asosida quyidagi tamoyillarni ajratish mumkin:

- investitsion jarayonning demarkazlashishining optimal darajasini ta'minlash hamda investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun jamg'arishning mintaqaviy va ichki omillarining ro'lini oshirish maqsadida markaziy investitsion siyosatning hamda mintaqaviy investitsion dasturlarning koordinatsiyasini kuchaytirish;

- qaytarilib berilmaydigan byudjetdan moliyalashtirishdan pullik va qaytariladigan kreditlashga o'tish asosida korxonalarni davlat tomonidan markazlashgan investitsiyalar hisobidan qo'llab-quvvatlash;

- qaytarib berish asosida moliyaviy investitsiyalash bazasini shakllantirish uchun yirik resurslarni jalb qiluvchi motivatsion mexanizmni yaratish;

- faqat konkurs asosida har bir investitsion dasturning dastlab ekspertizasiga va markaziy maqsadli dasturlarga mos ravishda ishlab chiqarishga mo'ljallangan investitsion loyihalarni moliyalashtirish va markazlashgan investitsiyalarni joylashtirish;

- investitsion siyosatning davlat ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;

- iqtisodiyotni investitsiyalashda xususiy sektorning rolini oshirish orqali investitsion jarayonni bosqichma-bosqich markazlashuvi;

- investitsion loyihalarni davlat - tijorat tomonidan moliyalashtirish amaliyotini ahamiyatli kengaytirish, shu jumladan chet el investorlar va xususiy biznes kapitallarini jalb etish;

- markazlashgan (kredit) investitsion mablag'lardan, juda samarali va o'zini tez oqlaydigan investitsion loyihalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish;

- chet el investitsiyalarini jalb qilish maqsadida qonun chiqaruvchi va normative bazalarni mustahkamlash va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni. – T.: 1999 yil 20 avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning mamlakatimizni 2018-2019-yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risidagi qaroriga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2017-yil 16-avgust
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.: —O'zbekiston NMIU, 2017 y. 5- bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 23 dekabrda №PQ-2697-sonli O'zbekiston Respublikasi 2017 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida'gi Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019 yildagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019 yildagi PQ-4095-son "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.03.2019 yildagi 198-son "Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.02.2019 yildagi 119-son "2019-2020 yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
9. Валдайцев С.В., Воробьев П.П. Инвестиции. Уч. М.: ТК ВЕНБИ, издательство Проспект. 2004. – стр.55.
10. Rotrov "Iqtisodiy rivojlanish va turizm" M. 1952-yil 172-bet.
11. Боголюбов В.С., Орловская В.П. Экономика туризма: Учебное пособие. 3-е изд.. М.: Издательский центр "Академия", 2008. – 192 с.
12. Туризм и гостиничное хозяйство: учебное пособие / под ред. Л.П.Шматько. – Изд. 4-е изд. – Ростов н/Д : Феникс; "МарТ", 2010. – 352 с
13. Ўзбекистоннинг янги қонунлари. 19-сон,-Т.: Адолат,1998.532-бет.
14. Soliyev A.S., Mirzaaxmedov S.X., Jumaxanov Sh.Z —Qo'shma korxonalar geografiyasi.-Namangan.: Namangan nashriyoti, 2006.
15. Хайдаров Н. Х., Ubaydullaeva S.F. —Хорий investitsiyalarni muvofiqlashtirish masalalari. Toshkent - 2011y. 24-25 betlar.

16. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: «Moliya» nashriyoti, 2013 yil. 32-bet.
17. Alieva M. Mehmonxona menejmenti. T.: TDIU, 2011. – 65 bet.
18. Stat.uz./ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi /2018-yil O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (dekabr oyi uchun)
19. Turizm: nazariya va amaliyot- T: ”barkamol fayz media nashriyoti” 2018y
20. “Xalq so‘zi” gazetasi № 114. 4-iyun 2014yil.
21. Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi matbuot xizmati turkumidan. 2019-yil 10-aprelda chop etilgan maqola.
22. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi/ 2018-yil dekabr oyi uchun /press-relizlar//asosiy kapitalga investitsiyalar.
23. <https://www.nordeatrade.com/explore-new-market/Uzbekistan/investment-environment>.
24. <https://kun.uz/uz/news/2019>.
25. Gover.uz/O‘zbekiston Respublikasining —Chet el investitsiyalari to‘g‘isidagi Qonuni
26. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi./Stat.uz//turizm tahlili 2017yil
27. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi./Stat.uz//turizm tahlili 2018yil.